

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

HISOB VA AUDIT FAKULTETI

“BUXGALTERIYA HISOBI ” KAFEDRASI

USMONOV BEHZOD MAXAMADJONOVICH

**“AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MAHSULOT SOTISH
HISOBI VA AUDITI”**

5340900 -“Buxgalteriya hisobi va audit” ta‘lim yunalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

«Buxgalteriya hisobi» kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dots. B.O.Bolibekov

« ____ » _____ 2014 y.

Ilmiy rahbar:

_____ o‘q. Rahmonov Sh.

« ____ » _____ 2014 y.

TOSHKENT – 2014

Men, Usmonov Bexzod Maxamadjonovich, ushbu BMIning mustaqil bajardim, ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda BMI kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rektor buyrug'i bilan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishini bilaman.

Usmonov Bexzod Maxamadjonovich

(sana, imzo)

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobi hamda auditining nazariy asoslari.....	7
1.1. Aksiyadorlik jamiyatlarining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ularning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	7
1.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobi hamda auditini o‘tkazishning maqsadi va vazifalari.....	12
II bob. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobining amaldagi holati.....	20
2.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotishdan daromadni tan olish va uning dastlabki hisobi.....	20
2.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot va xizmatlar sotish jarayonining hisobini yuritish.....	28
III bob. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish auditini o‘tkazish.....	49
3.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish auditini rejalashtirish.....	49
3.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish auditini o‘tkazish va natijalarini rasmiylashtirish.....	54
Xulosa va takliflar.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	63
Ilovalar.....	68

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashib borishi, O‘zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi o‘z navbatida, mavjud mahsulotlar sotishni buxgalteriyada aks ettirishni doimiy ravishda takomillashtirib, uni xalqaro me‘yorlar va standartlarga moslashtirib borishni taqozo qiladi.

Mamlakatimizda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishni tubdan oshirish bo‘yicha o‘z vaqtida ko‘rilgan chora-tadbirlar ham amaliy samarasini bermoqda.

O‘tgan yili ana shunday tovarlar ishlab chiqarishning o‘shish hajmi 14,4 foizni tashkil etdi va yalpi sanoat hajmida ularning ulushi 35,5 foizga yetdi. Bunday tovarlarning raqobatdoshligi nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham ortib bormoqda.

Hech shubhasiz, bu borada sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish ko‘lamini kengaytirish bo‘yicha bajarilgan ishlarimiz muhim rol o‘ynadi.

Songgi 3 yilda mamlakatimizda mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki barobar oshdi. Faqat o‘tgan yilning o‘zida 455 ta korxonada mahalliyashtirish dasturi asosida 1140 ta loyiha amalga oshirildi. Bunung natijasida ishlab chiqarish hajmi 1,2 barobar ko‘paydi va import o‘rnini bosish bo‘yicha yakuniy samara 5 milliard 300 million AQSh dollarini tashkil etdi.¹

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qilish va yuritish O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli “Mahsulot (ishlar,

¹ 2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi

xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori, Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) va “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliya-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlarining rejasi” asosida amalga oshiriladi. Ushbu me’yoriy hujjatlar buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil qilish hamda olib borishning umumiy tartiblarini belgilaydi.

Xalqaro standartlar (IAS va GAAP) talablaridan kelib chiqqan holda olib boriladigan buxgalteriya hisobi va hisobotining soddalashtirilgan (unifikatsiyalashtirilgan) tizimi sub’ektning ko‘rsatayotgan faoliyati hamda iqtisodiy ahvoli to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantirishga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, buxgalteriya hujjatlari va hisobotlarining barcha foydalanuvchilarga, jumladan, chet el sarmoyachilariga qulayligini oshiradi. Bugungi kunda sanoatda mahsulot tannarxini 20 foizga pasaytirish yuzasidan har bir sanoat korxonasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ko'zda tutadigan dastur ishlab chiqildi.

Buxgalteriya hisobida milliy standartlarning joriy etilishi asosan buxgalteriya hisobining eng muhim qoidalari va tamoyillarini izohlab berish va umumlashtirish, asosiy tushunchalarini bayon qilish va uni O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda mahsulot sotilishi hisobi va auditini tadqiq etgan holda takomillashtirish zaruriyatidan kelib chiqqandir.

Yuqorida ta'kidlangan fikrlardan kelib chiqqan holda, tanlangan mavzu hozirgi kunda dolzarb ekanligini ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti. Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti sifatida “Bo'z paxta tozalash” ochiq aksiyadorlik jamiyati, shu kabi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning hisob va hisobot ma'lumotlari hamda shartli misollardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot (ish, xizmat)lar sotishni hisobga olish va ularni audit qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar mazkur tadqiqotning predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ish ishining maqsadi va vazifalari. Mazkur ishning maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobi va uning auditi uslubiy asoslarini aniqlash hamda taklif, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, ishni bajarishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

– iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobi hamda auditining nazariy asoslarini belgilash;

– aksiyadorlik jamiyatlarining mamlakatimiz iqtisodiyotida to‘tgan o‘rni va ularni tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish;

– aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobi hamda auditini o‘tkazishning maqsadi va vazifalarini o‘rganish;

– aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotishdan daromadni tan olish va uning dastlabki hisobi xususiyatlarini ochib berish;

– aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot va xizmatlar sotish jarayonining hisobini yuritishni tadqiq etish;

– aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish auditini rejalashtirish;

– aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish auditini o‘tkazish.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning nazariy asoslarini, Prezident I.A.Karimov asarlarini, mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarini o‘rganishga asoslanadi. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya vazirligi, Davlat Soliq va Statistika qo‘mitalari kabi bir qancha vazirlik, idoralarning me‘yoriy-huquqiy hujjatlari, yo‘riqnomalaridan hamda mahsulot sotish hisobi va uning auditi bo‘yicha O‘zbekiston hamda chet ellik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarini qiyosiy-tanqidiy o‘rganilganligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati uning asosiy natijalarini aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobi va uning auditini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqishda qo‘llash mumkinligi bilan belgilanadi.

Keltirilgan takliflar va tavsiyalar respublikamiz aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobini tashkil etish, yuritish hamda ularning auditi samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ishdagi ayrim takliflar va amaliy tavsiyalar mahsulot sotish hisobi hamda auditorlik tekshiruvlarini tashkil qilish va o'tkazishda hamda oliy o'quv yurtlarida qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishsining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish tarkibiy tuzilishiga ko'ra kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

I bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobi hamda auditining nazariy asoslari

1.1. Aksiyadorlik jamiyatlarining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutgan o‘rni va ularning tashkiliy-huquqiy asoslari

Mamlakatimizda bozor munosabatlarining jadal rivojlanishi hamda aniq va mukammal darajada rejalashtirilgan iqtisodiy islohotlarning o‘tkazilishi natijasida respublikamiz iqtisodiyotida tub burilishlar yuzaga keldi. Xususan, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining natijasi sifatida, nodavlat sektorning rivojlanishi O‘zbekistonni dunyo bozorida xorijiy davlatlar bilan erkin iqtisodiy aloqalarni yaxshi yo‘lga qo‘yilishiga mustahkam poydevor barpo etdi.

Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiyot mulkchilikning va xo‘jalik yuritishning xilma-xil shakllariga suyanan holda taraqqiy etadi. Bu iqtisodiyotda raqobat muhitini ta‘minlashning va rivojlantirishning eng muhim shartidir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ko‘rsatmokdagi, mulkchilikning aksiyadorlik shakli bozor tamoyillariga eng muvofiqlashgan holda samarali xo‘jalik yuritishga imkon beradi. Shuning uchun aksiyadorlik jamiyatlari bozor iqtisodiyoti mamlakatlari xo‘jalik tuzilmalari tarkibida yetakchi o‘rinni egallagan.

Aksiyadorlik jamiyatlariga xos bo‘lgan afzalliklar uni rivojlangan mamlakatlarda biznesni tashkil etishning yetakchi shakliga aylanishiga sabab bo‘lgan. Bu afzalliklarni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

- Biznesni tashkil etishning aksiyadorlik jamiyati shaklida pul kapitalini jalb etish masalasi samarali hal etiladi.
- Tadbirkorlikni qimmatli qog‘ozlarni (shu jumladan aksiyalarni) sotish orqali moliyalashtirilganda investorlar o‘z qo‘yilmalarini diversifikatsiyalash va shu bilan tavakkalchilikni pasaytirishlari mumkin.
- Bozor infrastrukturasini (fond birjalari va boshqalar) qimmatli qog‘ozlarning xaridorlar bilan sotuvchilar o‘rtasidagi harakatini osonlashtiradi.

- Aksiyadorlik jamiyati taqdirini alohida olingan aksiyador (mulkdor) hal eta olmaydi.
- Aksiyadorlik jamiyatlarida korxonada moliyaviy faoliyati shaffofroq xarakterda, mulkchilikning boshqa shakllariga nisbatan jamoatchilik tomonidan kuchliroq nazorat qilinadi.
- Korporatsiyaning yana bir muhim xususiyati mulkdorlar mas’uliyatining cheklanganligidir.
- Pul kapitalini ko‘paytira olish borasidagi afzalliklariga suyanganda holda muvaffaqiyatli ish olib borayotgan korporatsiya o‘z operatsiyalari hajmini va ko‘lamlarini tez kengaytira oladi.


Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining huquqiy asoslari yaratildi. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish, buxgalteriya hisobini tashkil etish, hisobot tuzish bilan bog‘liq munosabatlarini tartibga solish hamda asossiz aralashuvlarga chek qo‘yish maqsadida bir qancha qonunlar, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bulardan asosiylari O‘zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi hamda 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunlarini ta’kidlashimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrda e’lon qilingan “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan sohada bir qator vazifalar belgilab berildi. Ushbu farmon talablariga asosan ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari ustav jamg‘armalarini 400 ming AQSh dollariga yetkazildi. Ustav jamg‘armasi miqdorini Farmon talablariga yetkazish imkoni bo‘lmagan hollarda xususiy mulkchilikning boshqa tashkiliy-huquqiy shakllariga o‘tishlari lozimligi ta’kidlangan. Ayniqsa, farmon ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar bo‘yicha 2009 yil 1 aprelga qadar aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlarini o‘tkazilishini ta’minlashlari zarurligi belgilab qo‘yilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlari taraqqiyoti o‘z ichiga hozirda global iqtisodiy sohadagi korporativ taraqqiyotga xos bo‘lgan quyidagi qator hodisalarni olishi lozim:

- kapitalning kontseptratsiyasi (to‘planishi), (qo‘shilishlar va qo‘shib olishlar, strategik ittifoqlar tuzish);
- faoliyatning globallashuvi (sotish bozorlarini kengaytirish, eng jozibali xorijiy bozorlarda tobe tuzilmalarni yaratish);
- sanoat kapitali va moliya kapitalining birlashishi;
- faoliyat shakllari va yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash;
- kompaniya aktivlarini xavfdan holi qilish (sekyuritizatsiya);

Turli mulkchilik shakllari korxonalarining ayrimlarini tashkil qilish va faoliyat yuritish xususiyatlariga batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz.



1-chizma. Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari turlari.²

² O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.1996 y. 257-I-son Qaroriga muvofiq 01.03.1997 y. e‘tiboran amalga kiritilgan “O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi” 2§ 58-72 moddalari asosida.

Ustav kapitali jamiyatning aksiyadorlarga nisbatan majburiyatlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt aksiyadorlik jamiyati deb hisoblanadi. Jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlarini qo‘lga kiritadi. Jamiyat, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.³

Ishtirokchilari o‘zlariga qarashli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz o‘zga shaxslarga berishlari mumkin bo‘lgan aksiyadorlar jamiyati ochiq aksiyadorlar jamiyati hisoblanadi. Bunday aksiyadorlar jamiyati o‘zi chiqaradigan aksiyalarga qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladigan shartlar asosida ochiq obuna o‘tkazishga va ularni erkin sotishga haqli. Ochiq aksiyadorlik jamiyati o‘zi chiqarayotgan aksiyalarga yopiq obuna o‘tkazishga haqli, jamiyat ustavida va qonun hujjatlarida yopiq obunani o‘tkazish imkoniyati cheklab qo‘yilgan hollar bundan mustasno.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining soni chegaralanmaydi. Aksiyalari faqat o‘zining muassislari orasida yoki oldindan belgilab qo‘yiladigan boshqa shaxslar doirasida taqsimlanadigan aksiyadorlar jamiyati yopiq aksiyadorlar jamiyati hisoblanadi. Bunday jamiyat o‘zi chiqaradigan aksiyalarga ochiq obuna o‘tkazishga yoki ularni sotib olish uchun cheklanmagan doiradagi shaxslarga boshqacha tarzda tavsiya etishga haqli emas. Yopiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining soni ellik nafardan ziyod bo‘lishi mumkin emas. Belgilangan chegaradan ortib ketgan taqdirda u yopiq aksiyadorlik jamiyatlari uchun miqdori aksiyadorlarning chegaralangan limitidan ortib ketgan shaxslar aksiyadorlar reestrda ro‘yxatga olingan kundan e‘tiboran olti oy ichida ochiq aksiyadorlik jamiyatiga aylantirilishi, ushbu muddat tugagach sud tartibida tugatilishi lozim.

Yopiq aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlari ushbu jamiyatning boshqa aksiyadorlari sotayotgan aksiyalarni uchinchi shaxsga taklif etilayotgan narxda

³ O‘zbekiston Respublikasining 26.04.1996 yildagi (N223-I) “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni 2-moddasi.

va shartlarda, ularning har biriga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda imtiyozli olish huquqiga, agar jamiyat ustavida mazkur huquqni amalga oshirishning boshqacha tartibi nazarda tutilmagan bo'lsa, ega bo'ladi. Agar aksiyadorlar aksiyalarni sotib olishda o'z imtiyozli huquqlaridan foydalanmasalar, jamiyat aksiyadorlar tomonidan sotiladigan aksiyalarni sotib olish uchun imtiyozli huquqqa ega bo'lishi uning ustavida ko'zda tutilishi mumkin.

Aksiyadorlar sotayotgan aksiyalarni sotib olishda imtiyozli huquqdan foydalanish tartibi, muddati jamiyat ustavida belgilab qo'yiladi. Imtiyozli huquqdan foydalanish muddati aksiyalar savdoga qo'yilgan paytdan boshlab 30 kundan kam va 60 kundan ko'p bo'lishi mumkin emas.⁴

Agar bir (asosiy) xo'jalik jamiyati yoki shirkati ikkinchi xo'jalik jamiyatining ustav fondida undan ustunlik mavqeiga ega bo'lgan holda ishtirok etishi tufayli yoxud ular o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq yo bo'lmasa boshqacha tarzda ikkinchi xo'jalik jamiyati tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni belgilab berish imkoniga ega bo'lsa, ushbu ikkinchi xo'jalik jamiyati sho'ba xo'jalik jamiyati hisoblanadi.⁵

Xo'jalik jamiyatida ishtirok etuvchi boshqa jamiyat xo'jalik jamiyatiga qarashli ovoz beradigan aksiyalarning yigirma foizidan ko'prog'iga ega bo'lsa, bunday xo'jalik jamiyati qaram jamiyat deb hisoblanadi.

Fuqarolarning shaxsiy ishtirok etish hamda a'zolarining (ishtirokchilarning) mulk bilan qo'shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi ishlab chiqarish kooperativi hisoblanadi.

O'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot unitar korxonasi hisoblanadi.

⁴ O'zbekiston Respublikasining 26.04.1996 yildagi (N223-I) "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.1996 y. 257-I-son Qaroriga muvofiq 01.03.1997y. e'tiboran amalga kiritilgan "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi" 67- modda.

Unitar korxonaning mol-mulki bo‘linmasdir va u qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan korxonada xodimlari o‘rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas.


Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxonada o‘z mol-mulkingning bir qismini xo‘jalik yuritish uchun belgilangan tartibda topshirish yo‘li bilan yuridik shaxs bo‘lgan boshqa unitar korxonada (sho‘ba korxonada) tashkil etishi mumkin.

1.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobi hamda auditini o‘tkazishning maqsadi va vazifalari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha firma va kompaniyalarda mahsulotlarni eng avvalo, sotish uchun ishlab chiqarishni tashkil etadilar. Faqatgina buyurtmachilar barcha talablarini qondirish maqsadida sifatli tovarlar ishlab chiqarishga harakat qiladilar. Mahsulotlarning o‘z muddatida sotilishi ishlab chiqarishni maromida davom etishini ta’minlaydi, boyliklarning aylanishini tezlashtiradi. Mahsulot sotish orqali qilingan doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar qoplanadi va firma foyda ko‘rishni mo‘ljallaydi. Sotish hajmi ishlab chiqarish jarayonining so‘nggi bosqichidir. Mahsulot sotishdan kelgan tushum orqali korxonada birinchi galdagi to‘lovlarni amalga oshiradi, ya’ni, davlat byudjeti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar oldidagi majburiyatlarini bajarishga, o‘z ishchi va xizmatchilari bilan mehnat haqi yuzasidan to‘lovlarni bajarishga, olgan kredit va qarzlarni qaytarishga, mol yetkazib beruvchilar bilan hisoblashishlarni amalga oshirishga harakat qiladi. Bu hisob-kitoblarning o‘z vaqtida bajarilishi turli xil jarima, iqtisodiy ogohlantirishlar va penyalar to‘lashning oldini oladi.


Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘z vaqtida sotilishi korxonaning ijobiy moliyaviy natijaga erishishi, dividend to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirishi, mulk va mablag‘larning uzluksiz hamda samarali aylanishi kabi ko‘pgina moliyaviy ahvol munosabatlarini yaxshilash imkoniyatini tug‘diradi. Sotish jarayonini muddatida bajarilishi korxonaning ishlab chiqarish va ta’minot

jarayonlarini ham tezlashishiga ta'sir etadi, debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartiradi, pul oqimlarini ijobiy bo'lishini ta'minlaydi. Bu fikrlarni oddiy ifodalash maqsadida quyida mablag'larning korxonaga va firmalardagi harakat qilishini chizma shaklda keltiramiz:



2-chizma. Sotish jarayoni ketma-ketligi tuzilishi⁶.

Umumiy qilib aytganda sotish xarajatlarini quyidagi chizmada ko'rish mumkin:



3-chizma. Sotish xarajatlari tarkibi⁷.

Sotish xarajatlarini hisobga olishning asosiy yo'nalishi bu sub'ektning sotish faoliyati ustidan nazorat o'rnatish va ushbu faoliyatni amalga oshirishda

⁶ Sotvoldiev A.S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. - T.: Milliy Assotsiatsiyasi, 2004, 429 b.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini shakllantirish tarkibi to'g'risida"gi Nizomi asosida tayyorlandi.

sarflanadigan xarajatlarni boshqarishdir.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot (ish, xizmat)larni sotish muomalalarini hisobga olishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy natijalarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun sub'ektning ma'muriyatini zarur va yetarli ma'lumotlar bilan ta'minlash;

- chetga chiqishlarni aniqlash maqsadida haqiqatda sarflangan xarajatlarni kuzatish va nazorat o'rnatish, ularni me'yoriy va rejadagi hajmi bilan taqqoslash va kelgusidagi iqtisodiy strategiyasini shakllantirish;

- ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni baholash va moliyaviy natijalarni hisoblash uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning tannarxini hisoblash;

- uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish va texnologiya dasturlarining qoplanishi, ichki va tashqi bozorlarda sotilayotgan mahsulotlarning turlari bo'yicha rentabellik darajasi, sotish xarajatlari samaradorligi va faoliyati bo'yicha boshqaruv hisobi ma'lumotlarini bir tizimga keltirish.

Korxonaning sotish xarajatlarining hisobi 21 BXMSga muvofiq⁸ 9410 "Sotish xarajatlari" schyotida aks ettiriladi. Ushbu schet tranzit bo'lib, hisobot davrining oxirida 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyoti bilan bog'langan holda yopiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonada ishlab chiqarishi ko'zda to'tgan mahsulotlar hajmi iste'molchilarning ko'lami hamda korxonada ichki imkoniyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan boyliklarning chegaralanganligi mo'l-ko'l tovarlar yaratishni ham chegaralaydi. Bunday sharoitda korxonada o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini

⁸ "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha Yo'riqnomasi". 21-BHMS. O'zR AV 23.10.2002 y. 1181-son bilan ro'yxatga olingan.

to'g'ri belgilay olishi muhim ahamiyatga egadir.

Korxonalar yaratayotgan mahsulotlarining bozorda mo'l-ko'lligi, raqobatchilarning imkoniyatlari va iste'molchilarning ixtisoslik tovarlarga bo'lgan talablarining o'zgarib turishi ishlab chiqarish hajmini to'g'ri va oqilona rejalashtirishni talab etadi. Har bir korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotlarining xaridorlari bilan joriy yil uchun shartnomaviy majburiyatlar tuzadilar. Shartnoma imzolashda sotish bozorlarni o'rganish, xaridorlarga yaratilyotgan mahsulotlar to'g'risida ma'lumotlar etkazish, boshqacha qilib aytganda reklama qilish lozim. Bu esa ma'lum xarajatlarni talab qiladi.

Tayyor mahsulot va tovarlar auditining me'yoriy asoslaridan biri bo'lib, 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) hisoblanadi. Mazkur BHMSning maqsadi tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxsga mulk huquqida tegishli bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobi uslubiyati va moliyaviy hisobotda aks ettirilishini belgilash hisoblanadi.

Mahsulot va tovarlar auditining me'yoriy asoslari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan.
2. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahrirda), 2000 yil 26 mayda qabul qilingan.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1996 yil 29 avgustda 257/1-sonli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan 1997 yil 1 martdan kuchga kiritilgan (o'zgartirishlar bilan).
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, 2007 yil 25 dekabrda tasdiqlangan (o'zgartirishlar bilan).
5. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash haqida yo'riqnoma" nomli 21-sonli BHMS. 2002 yil 9 sentyabrda 103-son bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan va 2002 yil 23 oktyabrda 1181-son

bilan Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi haqida»gi nizom (o'zgartirishlar bilan).

7. "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri), 2004 yil 24 avgustda qabul qilingan (o'zgartirishlar bilan).

8. "Dehqon xo'jaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan (o'zgartirishlar bilan).

9. "Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik xulosasi" O'zbekiston Respublikasi 70-sonli auditorlik faoliyati milliy andozasi.

10. 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) (O'zR AV tomonidan 2006 yil 17 iyulda 1595-son bilan ro'yxatga olingan).

11. "Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalari" O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan (o'zgartirishlar bilan).


Tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha hisob yuritilishi holatini tekshirish bo'yicha ma'lumot manblari bo'lib tayyor mahsulotni omborda hisobga olish bo'yicha varaqalar, pereyskurantlar, mahsulotni yetkazib berish to'g'risida shartnomalar, schyot-fakturalar, sotish bo'yicha daftarlar, tayyor mahsulotni berish to'g'risida yukxatlari, xaridorlar ishonchnomalari, tushum kelib tushganligi to'g'risida dastlabki bank va kassa hujjatlari (to'lov talabnomalar, talabnoma-topshiriqnomalar, kassa kirim va chiqim orderlari va boshqalar) 2010-"Asosiy ishlab chiqarish", 2810-"Ombordagi tayyor mahsulotlar", 2910-"Ombordagi tovarlar", 9010-"Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar", 9110-"Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi", 5010-"Milliy valyutadagi pul mablag'lari", 5110-"Hisob-kitob schyoti", 4010-"Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar", 6310-"Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar" va boshqa schyotlar bo'yicha hisob

registrlari (jurnal-orderlar), Bosh kitob, “Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot” (2-shakl) va boshqalar hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligi ishlab chiqarilayotgan mahsuloti bozorda raqobatdoshligiga, uning ichki va tashqi bozorda talabiga, sotish hajmiga bog‘liqdir.

Tayyor mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish aholini ehtiyojlarini ta‘minlashga qaratilgan har bir korxonada ishlab chiqarish faoliyatining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi.

Sotish muomalalari va moliyaviy natijalar auditining vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:



4-chizma. Sotish muomalalari auditining vazifalari⁹.

⁹ Do‘smuratov R.D. Audit asoslari.-T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.-254 b

Sotuv hajmi va uning tarkibiy qismlarining auditi — ko‘p jihatdan butun tekshiruvning sifatini belgilovchi muhim masalalardan biridir.

Tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish auditining maqsadi tayyor mahsulot to‘liq kirim qilinganligini, sotishdan olingan tushum va sotilgan mahsulotning tannarxi to‘g‘ri hisoblanganligini aniqlashdan iborat.

Tekshiruv jarayonida auditor quyidagi masalalarni hal etadi:

- tayyor mahsulotni baholash bo‘yicha usul asosli tanlab olinganligi va to‘g‘ri qo‘llanilayotganini tasdiqlash;
- tayyor mahsulot to‘liq kirim qilinayotganligini aniqlash;
- jo‘natilgan va sotilgan mahsulotlar hajmlarini tasdiqlash;
- jo‘natilgan va sotilgan mahsulotlar tannarxini tasdiqlash.

Aktivlarining balans qiymati bir milliard so‘mdan ko‘p bo‘lgan jamiyatda ichki audit xizmati tashkil etiladi. Ichki audit xizmati jamiyatning kuzatuv kengashiga hisobdordir.

Ichki audit xizmati jamiyatning ijroiya organi, vakolatxonalari va filiallari tomonidan qonun hujjatlariga, ta‘sis hujjatlari va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma‘lumotlarning to‘liq hamda to‘g‘ri aks ettirilishi ta‘minlanishini, xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek jamiyatni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali jamiyatning ijroiya organi, vakolatxonalari va filiallari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

Ichki audit xizmati o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

Auditorlik tashkiloti jamiyat bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshiradi va unga auditorlik xulosasi taqdim etadi.

Auditorlik tashkiloti jamiyatning moliyaviy hisoboti va moliyaga doir boshqa axborotlar haqida noto‘g‘ri yakun bayon etilgan auditorlik xulosasi

tuzganlik oqibatida yetkazilgan zarar uchun jamiyat oldida javobgar bo‘ladi.

Ustav fondidagi davlat ulushi ellik foizdan ko‘p bo‘lgan jamiyatlarda auditorlik tekshiruvi o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini tanlash O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha tanlov asosida amalga oshiriladi.

Jamiyatning moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko‘ra taftish komissiyasi xulosa tayyorlaydi, bu xulosada:

- hisobotlarda va jamiyatning boshqa moliya hujjatlarida aks ettirilgan ma’lumotlar qay darajada to‘g‘riligiga baho beriladi;

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliya hisobotini taqdim etish tartibi, shuningdek moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish chog‘ida qonun hujjatlari buzilganligi to‘g‘risida axborot beriladi.

II bob. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish hisobining amaldagi holati

2.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotishdan daromadni tan olish va uning dastlabki hisobi

Korxonalarda ishlab chiqarish jarayonining pirovard mahsuloti tayyor mahsulotdir. Texnologik ishlov berinshing barcha bosqichlaridan o'tgan, tasdiqlangan standartlar va texnik shartlarga muvofiq keladigan (uning sifatini tasdiqlaydigan sertifikat yoki boshqa hujjat bilan ta'minlangan), texnik nazorat bo'limi qabul qilgan va omborga topshirilgan yoki xaridorga yuklab jo'natilgan mahsulot tayyor mahsulot hisoblanadi.¹⁰

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 20 avgustda 41-son bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 26 avgustda 483-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS № 2) "Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar" (keyingi o'rinlarda - BHMS № 2 deb ataladi) daromadlar mohiyatini tushuntirish, daromadlar tarkibini aniqlash, daromadlarni tan olish payti va ularni o'lchashni belgilab berish maqsadida ishlab chiqilgan. Daromadlarni umumlashtirilgan holatda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining mahsuli sifatida aniqlashtirish mumkin. Daromadlar o'z navbatida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyat ko'rsatish manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Daromadlarsiz hech qanday foyda mavjud emas, o'z navbatida foydasiz xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi mavjud emasdir.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (IAS) 18 "Tushum" daromad tushunchasini quyidagicha tavsiflab beradi: tushum (daromad) -kompaniyaning odatdagi faoliyati davomida paydo bo'ladigan davr mobaynidagi iqtisodiy naflarning yalpi kelib tushish oqimi bo'lib, bunday oqim aksiyador (mulkdor)larning kirish badallarini hisobga olmagan holda kompaniyaning

¹⁰ G'ulomova F.G'. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. Toshkent: NORMA, 2009. 397-b.

kapitalini oshirishga olib keladi.¹¹

Boshqacha qilib aytganda, daromadni xo‘jalik yurituvchi sub’ekt aktivlarining oqimi yoki uning tovarlarni yetkazib berish yoxud tovarlarni ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish yoxud uning asosiy faoliyatini tashkil etadigan boshqa operatsiyalar natijasida kreditorlik qarzlarning qoplanishi sifatida ham belgilash mumkin.

Ba‘zan esa daromad tushunchasi uning xususiy kapitalga nisbatan ta‘siridan kelib chiqib aniqlanadi va u hisobot davri davomida aktivlarning ko‘payishi yoki majburiyatlarning qisqarishi ko‘rinishida xususiy kapitalning oshishiga olib keladigan iqtisodiy naflarning ko‘payishi sifatida ham aniqlanadi. Bunda xususiy kapitalning egalari tomonidan kiritilgan qo‘yilmalar natijasida xususiy kapitalning oshishi hisobga olinmaydi.

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromad asosiy, operatsion (asosiy faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan boshqa daromadlar) va moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlardan iborat bo‘ladi va quyidagicha ta‘riflanadi: “xo‘jalik yurituvchi sub’ektning odatdagi faoliyati davomida vujudga keladigan davr ichida mulk egalarining o‘z sarmoyalariga badali bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘payishlarni istisno etganda, xususiy kapitali ko‘payishiga olib keladigan tushumlar”.

Xo‘jalik yuritish amaliyotiga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga asosan, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan ularning xo‘jalik faoliyatini yuritish natijasida oladigan daromadlari quyidagi asosiy bo‘limlar bo‘yicha hisobotga kiritiladi:

- realizatsiyadan olingan sof tushum;
- asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsion daromadlar);
- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

¹¹ Ortiqov A. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to‘plami. T.: Norma. 2010. 9-b.

- favqulodda daromadlar.

Mazkur standartga asosan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan asosiy faoliyatdan va asosiy bo‘lmagan faoliyatdan olingan daromadlar uning yalpi daromadini tashkil etadi.

Bunda BHMS № 2ga muvofiq, daromadlar deyilganda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning odatdagi faoliyati davomida olingan daromadlar tushuniladi, jumladan quyidagilar ham:

- tovar-moddiy zaxiralarni sotishdan, xizmatlar ko‘rsatilishidan olinadigan, mahsulotni realizatsiya qilishdan kelib tushgan yoki kelib tushishi lozim bo‘lgan tushum ko‘rinishidagi daromad;

- foizlar, dividendlar, royalti va boshqa ko‘rinishdagi daromadlarni olish imkonini beradigan aktivlarni boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektga foydalanish uchun o‘tkazib berish.

Tovarlar sirasiga xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan realizatsiya qilish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va qayta sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar yoki keyinchalik qayta sotish maqsadida saqlanayotgan boshqa aktivlar kiradi.

Xizmat ko‘rsatish odatda xo‘jalik yurituvchi sub’ektning shartnomada belgilab qo‘yilgan shartlarni kelishilgan davr davomida bajarishni o‘z ichiga oladi. Xizmatlar bir yoki bir necha davrlar davomida bajarilishi mumkin. Xizmat ko‘rsatishga doir ayrim bitimlar pudrat usulida amalga oshiriladigan qurilish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi, masalan, arxitektorlar va qurilish ishlari loyihasi boshqaruvchilari xizmatiga doir bitimlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 2 noyabrda 58-son bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 23 dekabrda 579-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS № 17) “Kapital qurilish bo‘yicha pudrat shartnomalari”da batafsil qarab chiqiladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning aktivlaridan boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan foydalanilishi quyidagi ko‘rinishdagi daromadlarga olib

keladi:

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektga qarashli bo‘lgan va ma’lum miqdorda haq to‘lash sharti bilan foydalanish uchun berilgan pul mablag‘lari yoki pul o‘rnini bosa oladigan aktivlar (pul ekvivalentlari) yoxud so‘mlarni aks ettiruvchi foizlar;

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektning uzoq muddatli aktivlaridan, masalan, patentlar, savdo markalari, mualliflik huquqlari va kompyuter dasturlaridan pul to‘lash sharti bilan foydalanish uchun berilgan, foydalanganlik uchun to‘lanadigan royaltlar;

- ishtirokchilar (muassislar) o‘rtasida ularning xususiy sarmoyadagi ulushiga mutanosib ravishda foydani taqsimlashdan olinadigan boshqa daromadlari.

Ta’kidlab o‘tish joizki, BHMS №2ning ta’sir etish doirasi quyidagilar natijasida paydo bo‘ladigan daromadlarga nisbatan qo‘llanilmaydi:

- lizing bitimlaridan olinadigan daromadlar (mazkur bitimlardan olinadigan daromadlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2009 yil 6 apreldagi 58-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 24 aprelda 1946-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS № 6) “Ijara hisobi”da batafsil ravishda ko‘rib chiqiladi);

- hisoblangan dividendlar va investitsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar (moliyaviy investitsiyalardan olinadigan daromadlar hamda shu’ba xo‘jalik jamiyatlariga kiritilgan investitsiyalardan olinadigan daromadlar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 23 dekabrda 65-son bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 16 yanvarda 596-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS № 12) “Moliyaviy investitsiyalar hisobi”da hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 14 oktyabrda 50-son bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 28 dekabrda

580-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS № 8) "Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga kiritilgan investitsiyalar hisobi"da batafsil ravishda ko'rib o'tiladi);

- sug'urta kompaniyasi bilan amalga oshirilgan sug'urta shartnomalari;
- moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlar joriy qiymatidagi yoki ularni realizatsiya qilish hollardagi o'zgarishlar;
- boshqa aylanma mablag'lar qiymatidagi o'zgarishlar;
- chorva hayvonlar va qishloq xo'jaligi hamda o'rmon xo'jaligi mahsulotining tabiiy o'sishi;
- mineral ma'danlarni qazib olish.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan uning schyotiga kelib tushadigan yalpi tushumlardan yoki olinishi mumkin bo'lgan tushumlardan iborat. Uchinchi shaxslar nomidan undirib olinadigan, xo'jalik yurituvchi sub'ektga kelib tushadigan va xususiy kapitalning ko'payishiga olib kelmaydigan bilvosita soliqlar summasi asosiy xo'jalik faoliyati daromadiga kiritilmaydi. Vositachilik faoliyatida xo'jalik yurituvchi sub'ektga kelib tushadigan yalpi tushumlar asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad hisoblanmaydi. Bunday hollarda faqatgina vositachilik haqi daromad hisoblanadi.

BHMS №-2 ning 8-bandiga muvofiq, asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromad joriy narxlarda olingan yoki olinishi lozim bo'lgan tushum (to'lov) qiymati bo'yicha baholanadi.

BHMS № 2 joriy narxlardagi qiymat tushunchasini quyidagicha izohlaydi: joriy narxlardagi qiymat - bu aktivning sotilishi yoki majburiyatning qoplanishi mumkin bo'lgan qiymatidir. Shuning bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2003 yil 9 oktyabrdagi 114-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004 yil 20 yanvarda 1299-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS № 5) "Asosiy

vositalar”ga muvofiq, joriy qiymat - bu ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo’yicha asosiy vositalarning qiymati yoki har tomonlama xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil tomonlar o’rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo’lgan summadir.

Tovarlarni realizatsiya qilishdan va xizmatlarni ko’rsatishdan olinadigan daromad sub’ektlar o’rtasida shartnomada ko’zda tutilgan sotish narxlari bo’yicha aniqlanadi. Bitimdan kelib chiqadigan daromad summasi olingan yoki olinishi lozim bo’lgan pul mablag’lari yoki pul ekvivalentlari summasidan sub’ektga o’tib beriladigan savdo chegirmalari summasi yoki narxlarni tushirish hajmini hisobga olgan holdagi qiymat bo’yicha o’lchanadi.

Biroq agar pul mablag’lari yoki pul ekvivalentlarining tushumi kechiktiriladigan bo’lsa, bunday holda joriy narxlarda ifodalangan iqtisodiy naf qiymati olingan yoki olinishi lozim bo’lgan qiymat pul mablag’larining nominal miqdoridan kam bo’lishi mumkin. Bitimlar tuzish natijasida moliyaviy operatsiyalarni o’tkazish chog’ida to’langan mablag’ning joriy narxdagi qiymati muqobillashgan foiz stavkasini qo’llagan holda hisoblangan kelgusidagi barcha tushumlarni diskontlash yo’li bilan aniqlanadi. Sotish qiymati va olinadigan qoplama (kompensatsiya)ning nominal qiymati o’rtasidagi farq summasi BHMS № 2ning 20 va 21-bandlariga muvofiq foiz ko’rinishidagi daromad sifatida tan olinadi.

Misol. “Bo’z paxta tozalash” OAJ 2013 yil 20 noyabrda xaridorga 5000000 so’mlik tovarlarini “tovar yuklab jo’natilgan” shartnoma shartlari bo’yicha quyidagi qo’shimcha shartlar bilan sotmoqda:

1. Tovarlarni to’lash bo’yicha schyot (to’lovnoma) taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kun davomida muddatidan oldin to’lagani uchun 2 %li chegirma beriladi (bitim bo’yicha to’lov muddati - 30 kun).

2. To’lov muddati o’tib ketgan sanadan keyin tovarlar uchun to’langan holatda 10 %li ustama summasi bilan birga.

Birinchi holatda xaridor to'lov uchun berilgan 30 kun ichida savdo chegirmasidan foydalanishi mumkin, agar to'lov uchun schyot taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kun ichida to'lab bersa. Ushbu hollarda hisoblash printsipli (tamoyili) bo'yicha quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

Birinchi holatda:

- mahsulotni realizatsiya qilish (sotish)dan olingan tushum summasiga:

Debet 4010 5 000 000 so'm;

Kredit 9010 5 000 000 so'm.

Agar xaridor to'lov uchun taqdim etilgan schyotni olish sanasidan boshlab 10 kun ichida o'z qarzini to'lab bersa, 100 000 so'mlik chegirma hisobga olinadi va u zarar sifatida aks ettiriladi;

- xaridordan, taqdim etilgan pul chegirmasi olib tashlangan holda, pul mablag'larining kelib tushishi:

Debet 5110 4 900 000 so'm;

Debet 9430 100 000 so'm;

Kredit 4010 5 000 000 so'm.

Ikkinchi holatda:

- mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan tushum summasiga:

Debet 4010 5 000 000 so'm;

Kredit 9010 5 000 000 so'm;

- xaridordan to'lov muddati o'tib ketganligini hisobga olgan holda foizli ustama qo'shilgan pul mablag'larining kelib tushishi:

Debet 5110 5 100 000 so'm;

Kredit 4010 5 000 000 so'm;

Kredit 9390 100 000 so'm.

Agar qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq, teng ahamiyatli yoki aynan o'xshash bo'lgan tovar bilan tovar ayirbosh qilinsa (almashtirilganda), bunday ayirboshlash daromad keltirmaydigan bitim sifatida e'tirof etiladi.

Misol. "Bo'z paxta tozalash" OAJ 500000 so'm qiymatga ega bo'lgan qurilishdan ortib qolgan suv o'tkazgich quvurlarini "Maxsus kiyim" mas'uliyati

cheklangan jamiyatining 750000 so‘m qiymatga ega bo‘lgan qo‘lqoplarga ayirboshlamoqda (almashtirmoqda). Mazkur holatda teng qiymatga ega bo‘lmagan yoki aynan o‘xshash bo‘lmagan tovarlarning o‘zaro ayirboshlanishi amalga oshirilishi sababli, “Bo‘z paxta tozalash” OAJ ning buxgalteriya hisobida quvurlarni realizatsiya qilish va realizatsiyadan olingan daromadni aks ettirish quyidagicha amalga oshiriladi:

- realizatsiya qilingan (ayirboshlangan) suv o‘tkazgich quvurlarning summasiga:

Debet 9220 500 000 so‘m;

Kredit 1010 500 000 so‘m;

- ayirboshlash natijasida olingan qo‘lqoplar summasiga:

Debet 1010 750 000 so‘m;

Kredit 9220 750 000 so‘m;

- suv o‘tkazgich quvurlarlari ayirboshlanishidan olingan foyda summasiga:

Debet 9220 250 000 so‘m;

Kredit 9320 250 000 so‘m.

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olingan daromad joriy narxlardagi olingan tovarlar yoki xizmatlarning qiymati bo‘yicha, to‘lab berilgan pul mablag‘lari yoki pul ekvivalentlarining summasiga qayta tuzatishlarni hisobga olgan holda o‘lchanadi.¹²

Joriy narxlardagi olingan tovarlar yoki xizmatlarning qiymatini aniq o‘lchash imkoniyati bo‘lmagan hollarda, asosiy faoliyatdan olingan daromad to‘langan yoki kelib tushgan pul mablag‘lari yoki pul ekvivalentlari summasiga qayta tuzatilgan yuklab jo‘natilgan tovarlar yoki xizmatlarning qiymati bo‘yicha baholanadi.

¹² Ortiqov A. va boshqalar. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to‘plami. T.: Norma. 2010. 20-b.

2.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot va xizmatlar sotish jarayonining hisobini yuritish

Ombordan tayyor mahsulot xaridorlarga korxonaning sotish bo'limi buyrug'iga asosan jo'natiladi. Mahsulotni sotish xaridor korxonalar bilan tuzilgan shartnoma va jo'natish grafigiga muvofiq amalga oshiriladi.

Sotish rejasini bajarishda xaridorlarga jo'natilgan mahsulot hisobini to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyatga egadir. Buni mahsulot ortib jo'iatishdan tortib to uning uchun xaridorlardan pul kelib tushguncha bo'lgan tovar mahsulotning harakatini doimiy ravishda kuzatib turish kerak. Bunday nazorat har bir dastlabki hujjat bilan jo'natilgan tovar mahsulot bo'yicha alohida yuritilib, shu mahsulotning qachon va kimga jo'natilganligi, uning yo'ldagi harakatiga qancha vaqt ketishi kerakligi va haqiqatda qancha vaqt ketganligi, qanday xaridorlar mahsulotni qachon qabul qilib olganliklari va qachon pulni to'lash kerakligi, qanday xaridorlar ularga jo'natilgan mollar uchun pul to'lamagan va nima uchun to'lanmaganligini, xullas, yo'ldagi barcha tovar mahsulotning taqdiriga doir masalalar haqida xabardor bo'lib turish imkonini beradi.¹³

Mahsulotning ombordan ketishini rasmiylashtiruvchi hujjat asosida xaridorlarga jo'natilayotgan tayyor mahsulotga schyot, to'lov talabnomasi yoziladi va tovar oluvchi korxonaga xizmat qiluvchining bankiga topshiriladi.

To'lov-talabnoma. Mol etkazib beruvchining schyot-fakturaga mos ravishda ortib jo'natilgan mahsulot qiymati uchun xaridorning hisob-kitob schyotidan pulni o'tkazib berish to'g'risida bankka bergan buyrug'idir. Unda ortib jo'natilgan mahsulot qiymati va sotish bahosi, soni, assortimenti qayd qilinadi (bu holatda schetfaktura, albatta, to'lov-talabnomasiga ilova qilinishi lozim).

Schyot-faktura yoki to'lov talabnomasining alohida bo'lmasida tara va qadoqlash qiymati hamda xaridor tomondan to'lanadigan temir yo'l bo'yicha tarif summasi ko'rsatiladi. Ba'zida xaridor tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan

¹³ Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. Toshkent, «Sharq» NMK. 2004 yil. 262 bet

temir yo‘l tarifi bo‘yicha summaga umumiy mahsulotning sotish bahosi qo‘shib ko‘rsatilishi mumkin. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi alohida ko‘rsatiladi. Mol yetkazib beruvchi bilan xaridor o‘rtasida tuzilayotgan shartnoma vaqtida franko joy to‘g‘risida to‘xtalib o‘tiladiki, bunda mahsulotni ortib jo‘natish bilan bog‘liq xarajatlarni mol etkazib beruvchi o‘z zimmasiga oladi. Franko joyning quyidagi turlari mavjud:

Franko-ombor mol etkazib beruvchi. Bunda mahsulot ortib jo‘natish bilan bogliq bo‘lgan barcha xarajatlarini mol yetkazib beruvchi korxonaga to‘lov-talabnomasi qo‘shadi (ombordagi ortib tushirish ishlarining qiymati temir yo‘l tarifi va yetkazib berish xarajatlari).

Franko-stantsiya jo‘natish shunday narxki, u mol yetkazib beruvchi to‘lov-talabnomasining summasi, temir yo‘l tarifi va mahsulotni vagonga ortish xarajatlari yig‘indisidan iborat.

Belgilangan stantsiyagacha franko vagon shunday narxki, bunda mol etkazib beruvchi to‘lov talabnomasiga faqat temir yo‘l tarifi summasini qo‘shadi.

Belgilangan stantsiyagacha franko. Bunda jo‘natish bo‘yicha barcha xarajatlarni temir yo‘l tarifi qo‘shilgan holda mol yetkazib beruvchi tomonidan to‘lanadi.

Narxning franko ombor xaridor turida mol yetkazib beruvchi ko‘rsatilgan xarajatlardan tashqari xaridorning stantsiyadagi ortib tushirish ishlari, uning ombordagi va omboriga yetkazib berish ishlari bo‘yicha xarajatlarni to‘laydi (qoplaydi).

Bizning respublikamizda eng keng tarqalgan turi franko stantsiya jo‘natish hisoblanadi.

Xo‘jalik shartnomasi¹⁴ — bu korxonalarining xo‘jalik munosabatlari o‘rnatish haqidagi o‘zaro kelishuvdir. Shartnoma tomonlar majburiyati va huquqlarini belgilovchi asosiy hujjat hisoblanadi. Yuz bergan sharoitni hisobga olib vaqti-vaqti bilan shartnoma shartlari ko‘rib chiqilishi va ularga

¹⁴ Karimov A., Islomov F., Avloqulov A. Buxgalteriya hisobi. Toshkent, «Sharq» NMK. 2004 yil. 263 bet

o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Agar korxonaga belgilangan nomenklaturadagi mahsulotni jo'natish yuzasidan shartnoma shartlarini buzsa, u holda ushbu korxonaga nisbatan jazo choralari qo'llanadi. Demak, shartnoma bilan rasmiylashtirilgan har bir rejali buyurtma korxonaga xodimlari bajarishi shart bo'lgan qonundir. Bunday tartib ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yuqori ish unumdorligiga erishishni ta'minlaydi. Belgilangan muddatda mahsulot sotish rejasining bajarilmaganligi uchun jarima to'lash chorasi qo'llaniladi. Jarima miqdori mahsulot sotish shartlariga qarab aniqlanadi.

Tayyor mahsulotlarni xaridorlarga jo'natish xaridor bilan tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu shartnomalarda jo'natiladigan mahsulot muddati, miqdori, qiymati va hisob-kitob shartlari keltiriladi. Jo'natilgan mahsulot schyot-faktura, chiqim hujjati, to'lov talabnomasi va boshqa hujjatlarda rasmiylashtiriladi.

Xizmat ko'rsatishni (ishlarni bajarishni) o'z ichiga oladigan bitim natijasi aniq belgilanadigan bo'lsa, ushbu bitim bilan bog'liq bo'lgan daromad yillik moliyaviy hisobot tuzish vaqtida bitimning bajarilishi bosqichiga qarab tan olinadi. Bitim natijasi esa quyidagi shartlarni bajarish bo'yicha aniq belgilanishi mumkin:

- bitimni bajarish chog'idagi daromadlar hamda amalga oshirilgan xarajatlar va bitimni nihoyasiga etkazishga doir xarajatlar yuqori darajadagi ishonchlilik bilan baholanishi mumkin;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektga bitim bilan bog'liq bo'lgan daromadlar kelib tushishining katta ehtimoli mavjud;

- buxgalteriya balansi hisobot sanasigacha bitim bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi yuqori darajadagi ishonchlilik bilan baholanadi.

Xaridorlar va buyurtmachilar bilan tovarlar, tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun debitorlik qarzlari bo'yicha

hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

4020 "Olingan veksellar".

4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyotida sotilgan mahsulot (tovar)lar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlar va buyurtmachilarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha debitorlik qarzlari hisobga olinadi.

4020 "Olingan veksellar" schyotida olingan veksellar bilan ta'minlangan xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debitorlik qarzi hisobga olinadi. (Respublikamizda veksell operatsiyalari amalga oshirilmaydi)

Olinadigan schyotlar (4000) asosiy (operatsion) faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000), asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar (9200) va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9300) bilan bog'langan holda xaridor (buyurtmachi)larga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlaridagi summaga debetlanadi. (1-ilova)

Olinadigan schyotlar (4000) pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan kelib tushgan to'lovlar summasiga, olingan bo'naklarni hisobga olish va boshqalar bilan bog'langan holda kreditlanadi.

Olinadigan schyotlar bo'yicha analitik hisob har bir xaridor (buyurtmachi) bo'yicha yuritiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt quyidagi bandlar bo'yicha bitimda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan kelishuvga erishgandan so'ng ishonchli tarzda baholashi mumkin bo'ladi:

- tomonlarning xizmat ko'rsatishi va qabul qilishi xususida da'vo qilish kuchiga ega bo'lgan huquqlari;
- ko'zda tutilayotgan qoplamalar hajmi;

- hisob-kitob qilish usuli va shartlari.

1-jadval

Tayyor mahsulotlar xaridorlari va buyurtmachilari bilan hisob-kitoblarning aks ettirilishi¹⁵

№	Muomalalar mazmuni	Summa	Debet	Kredit
1.	Tayyor mahsulotlar sotishdan olingan daromad aks ettiriladi	600000	4010	9010
2.	QQS hisoblab yozildi	120000	4010	6410
3.	Xaridorlar va buyurtmachilardan to'lovlar kelib tushdi	720000	5110	4010

Buning ma'nosi shundan iboratki, xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shartnoma bilan rasmiylashtirilib, unda qoplamaning (kompensatsiyaning) aniq summalari, to'lovning shartlari va shakllari, tovar-moddiy zaxiralar qiymatini ko'rsatilgan xizmatlar summasiga kiritish kabi masalalar ko'zda tutiladi.

Har bir bitimning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xo'jalik yurituvchi sub'ekt uning tugallanish bosqichini quyida keltirilgan usullardan birini qo'llagan holda aniqlaydi:¹⁶

1. Bajarilgan ishlarni tahlil qilish, ya'ni nazorat tartibida ishlarni o'lchab chiqish.

2. Ma'lum bir hisobot sanasigacha bajarilgan xizmatlar hajmining (summasining) bitim bo'yicha xizmatlarning butun hajmiga (summasiga) bo'lgan foizli nisbati.

3. Ma'lum bir hisobot sanasigacha amalga oshirilgan xarajatlarning bitim bo'yicha xizmatlarni bajarish uchun jami xarajatlarga bo'lgan foizli nisbati. Ushbu sanagacha amalga oshirilgan xarajatlar sirasiga bajarilgan xizmatlar hajmi uchun sarflangan faqatgina haqiqiy xarajatlar olib boriladi. Bitim bo'yicha baholangan umumiy xarajatlar sirasiga esa bajarilgan yoki bajarilishi lozim

¹⁵ "Bo'z paxta tozalash" OAJ ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

¹⁶ Ortiqov A. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to'plami. T.: Norma. 2010. 36-b.

bo'lgan xizmatlarni aks ettiruvchi xarajatlar kiritiladi.

Misol. "Bo'z paxta tozalash" OAJ 2013 yil 10 sentyabrda qurilish bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun yangi turdagi qurilish uchun ishlatiladigan bo'z-mato ishlab chiqish bo'yicha shartnomani imzoladi.

Mazkur shartnomaga muvofiq, bajariladigan xizmatlardan olinadigan daromad summasi 200000000 so'mni tashkil etadi. Shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish uchun rejalashtirilgan xarajatlar 170000000 so'mga baholandi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblar bo'yicha ishlarni bajarish uchun 6 oy sarflanishi kutilmoqda. Hisobotni tuzish sanasiga, ya'ni 2012 yil 31 dekabr holatida sarflangan haqiqiy xarajatlar 102000000 so'mga teng ekanligi aniqlandi.

Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarishdan olingan daromadni 2013 yil 31 dekabr sanasiga tugallanish bosqichini yuqorida keltirilgan usullardan biri yordamida aniqlash va olingan natijalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish talab qilinadi.

Echimi: Ushbu holatda shartnomaning tugallanish bosqichi aniqlashning uchinchi usulidan - ma'lum bir hisobot sanasigacha amalga oshirilgan xarajatlarning bitim bo'yicha xizmatlarni bajarish uchun jami xarajatlarga bo'lgan foizli nisbatidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bajarilgan ishlarni tahlil qilish, ya'ni nazorat tartibida ishlarni o'lchab chiqishni o'tkazish yoki ma'lum bir hisobot sanasigacha bajarilgan xizmatlar miqdorining bitim bo'yicha xizmatlarning butun miqdoriga bo'lgan foizli nisbatini ishlatish imkoniyati mavjud emas. Tegishli ravishda hisob-kitoblar quyidagicha bo'ladi:

- 2013 yil 31 dekabr sanasi holatiga amalga oshirilgan xarajatlarning bitim bo'yicha xizmatlarni bajarish uchun jami (baholangan) xarajatlarga bo'lgan foizli nisbatini aniqlash - 60 foiz:

$$60 \% = 102\ 000\ 000 \text{ so'm} / 170\ 000\ 000 \text{ so'm} \times 100 \%$$

- 2013 yil 31 dekabr sanasi holatiga mazkur shartnoma bo'yicha 120 000 000 so'mlik summadagi daromadni tan olish lozim:

$$120\ 000\ 000 \text{ so'm} = 200\ 000\ 000 \text{ so'm} \times 60 \% / 100.$$

Shartnomani qisman bajarishdan olingan daromadni va bitim bo'yicha realizatsiya qilingan ishlarning tannarxini tan olish bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik operatsiyalari korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- 2013 yil uchun ishlarni realizatsiya qilish (bitimning bir qismini bajarish)dan olingan daromad summasiga:

debet 4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"
schyoti 120 000 000 so'm;

kredit 9010 "Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar"
schyoti 120 000 000 so'm;

- 2013 yil uchun realizatsiya qilingan (bitimning bir qismini bajarishning) ishlar tannarxi summasiga:

debet 9110 "Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi" schyoti
102 000 000 so'm;

kredit 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyoti 102 000 000 so'm.

Quyida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan bitimlarning turli xillari va xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadni tan olish paytining aniqlanishi keltirilgan:

1. O'rnatib berish uchun to'lov (yo'ldoshli televizion antennalar, telefon aloqasini va hokazolarni o'rnatish).

O'rnatib berish (yo'ldoshli televizion antennalar, telefon aloqasini va hokazolarni o'rnatish) bo'yicha xizmatlar uchun daromad montaj (o'rnatish) tugagandan so'ng tugallanish bosqichi ko'rsatilgan holda bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomani tuzish sanasiga tan olinadi. Agar bunday holatda oldindan to'lov olingan taqdirda, uni 6310 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar" schyotida bajarilgan ishlar tugallaniguna qadar hisobga olib borish lozim.

Bunda avanslarni olish bo'yicha buxgalteriya hisobi yozuvi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

debet 5110 "Hisob-kitob schyoti" schyoti

kredit 6310 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar” schyoti.

2. Xizmatlar uchun to‘lov mahsulotning bahosiga kiritilgan. Mahsulotlarni sotish bahosi sotishdan keyingi xizmatlar (masalan, dasturiy ta‘minot sotilganda mahsulot sifatini oshirishni ta‘minlash bo‘yicha sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatishlar) uchun ma‘lum bir summani o‘z ichiga olgan taqdirda, ushbu summa kelgusi davrga o‘tkazilib, 6230 “Boshqa kechiktirilgan daromadlar (kelgusi davr daro-madlari) schyotida hisobga olinadi va xizmatlar ko‘rsatilgan davrda daromad sifatida tan olinadi.

Hisobvaraqq-fakturalar, tovarlar jo‘natilganligini (topshirilgan-ligini) tasdiqlovchi kvitantsiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar tayyor mahsulotni realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir.

Mahsulotni to‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotish xaridor tovar qiymatini darhol emas, balki shartnomada belgilangan muddatlarda bir necha to‘lovlar bilan to‘lashini bildiradi. To‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘laganlik uchun bitim taraflarining kelishuviga ko‘ra qo‘shimcha to‘lov (bo‘lib-bo‘lib to‘laganlik uchun foiz) belgilangan bo‘lishi mumkin.

Sotuvchi mahsulotni yuklab jo‘natish sanasida foizlar chegirilgan holda sotish narxidan kelib chiqib daromadni tan olishi lozim. Foizlar olinishiga qarab moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromad sifatida tan olinishi lozim.

Ta‘kidlash lozimki, to‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘laganda ham 15 foizlik bo‘nakning mavjudligi zarur hisoblanib, qarz esa mahsulot yuklab jo‘natilgan kundan boshlab 90 kundan oshmagan muddatda to‘lanishi lozim.

To‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlarida mahsulotlarni sotish bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari quyidagicha bo‘ladi:

QQSsiz yagona soliq to‘lovini to‘lovchi korxoyaa ushbu vaziyatni hisobda QQSdan tashqari xuddi shunday yozuvlar bilan aks ettiradi.

Mahsulotni vositachilar orqali (komissiya shartnomasi bo‘yicha) sotishdagi tushum tayyor mahsulotlarni oluvchi tayyor mahsulotlarni yuk jo‘natuvchi (sotuvchi) nomidan sotish bo‘yicha majburiyatni o‘z zimmasiga olishi nazarda tutilgan komissiya shartlarida sotishda daromad yuk jo‘natuvchi

tomonidan tovarlarni yuklab jo‘natish paytida emas, balki mahsulot oluvchi tomonidan uchinchi tarafga sotilgan paytda tan olinadi.

2-jadval

Korxonada tuloqni bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartlarida mahsulotlarni sotish¹⁷

№	Muomalalar mazmuni	Debet	Kredit
1.	Xaridordan bo‘nak odindi	5110-“Hisob-kitob hisobvarag‘i”	6310-“Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar”
2.	Mahsulotni sotishdan olingan daromad aks ettirildi	4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar”	9010-“Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar”
3.	Sotilgan mahsulot bo‘yicha QQS hisoblandi	4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar”	6410-“Byudjega to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)”
4.	Sotilgan mahsulotning tannarxi hisobdan chiqarildi	9110-“Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi”	2830- “Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar”
5.	To‘lovlarning kelib tushishiga qarab xaridor qarzlarni to‘lanishi aks ettirildi	5110-“Hisob-kitob hisobvarag‘i”	4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar”
6.	Bo‘nakning hisobga olinishi	6310-“Xaridor va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar”	4010-“Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan hisobvaraqlar”

Misol. Ishlab chiqarish korxonasi avtomatlashtirilgan rangli televizor chiqarib, 480000 so‘mdan QQSni hisobga olgan holda sotadi, shu jumladan

¹⁷ 21-BHMS asosida tayyorlandi.

kafolat xizmat ko'rsatilishi summasi 50000 so'mga teng. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi 268000 so'mga teng.

2013 yil 21 fevralda korxonada savdo tarmoqlariga 50 dona rangli televizorlarni yuklab jo'natdi. Shartnoma bo'yicha oldindan to'lov hajmi 15 %ni tashkil etadi va qolgan summasi 2 oy mobaynida to'lanishi lozim. Realizatsiya qilish qiymatidan 15 % hajmidagi oldindan to'lov summasi korxonaning hisobraqamiga 2013 yil 3 martda kelib tushdi.

Yuqorida keltirib o'tilgan xo'jalik operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobi yozuvlari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

- rangli televizorlarni realizatsiya qilishdan olingan daromadning tan olinishi, bunda rangli televizorlarning sotish bahosi realizatsiya qilingan mahsulotlarni sotishdan keyingi xizmat ko'rsatish qiymatini o'z ichiga oladi:

debet 4010 24 000 000 so'm;

kredit 9010 17 500 000 so'm;

kredit 6410 4 000 000 so'm;

kredit 6230 2 500 000 so'm;

$24\,000\,000\text{ so'm} = 480\,000\text{ so'm} \times 50\text{ dona}$; $4\,000\,000\text{ so'm} = 24\,000\,000\text{ so'm} \times 20 / 120$; $2\,500\,000\text{ so'm} = 50\,000\text{ so'm} \times 50\text{ dona}$;

- realizatsiya qilingan rangli televizorlarning tannarxi summasiga:

debet 9110 13 400 000 so'm;

kredit 2810 13 400 000 so'm;

$13\,400\,000\text{ so'm} = 268\,000\text{ so'm} \times 50\text{ dona}$;

- rangli televizorlarni sotib olgan xaridordan oldindan to'lov summasining kelib tushishini aks ettirish:

debet 5110 3 600 000 so'm;

kredit 6310 3 600 000 so'm;

$3\,600\,000\text{ so'm} = 24\,000\,000\text{ so'm} \times 15 / 100$.

3. Reklama uchun mukofot.

Ommaviy axborot vositasi tomonidan vositachilik haqi omma oldida tegishli reklama yoki reklama tasmasi chiqarilganda tan olinadi. Ishlab chiqarish vositachilik haqi loyihani tugallanish bosqichi ko'rsatilganda tan olinadi.

Reklama uchun olingan oldindan to'lov summasini 6310 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar" schyotida hisobga oladilar, xizmat ko'rsatilgandan so'ng esa ushbu oldindan to'lovni tushumga ki-ritadilar, ya'ni daromad sifatida tan olinadi va quyidagi buxgalteriya hisobi yozuvi bilan aks ettiriladi:

- reklama bo'yicha komission xizmatlarni ko'rsatish uchun oldindan to'lovning olinishida:

debit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti;

- ommaviy axborot vositalari tomonidan reklama xizmatlari ko'rsatilgandan so'ng xizmatlarni bajarishdan olingan daromadning tan olinishi:

debit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti;

kredit 9030 «Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar» schyoti.

4. Sug'urta agentliklarining vositachilik haqi. Sug'urta agentligi tomonidan olingan yoki olinishi lozim bo'lgan vositachilik haqi, agent tomonidan keyinchalik xizmat ko'rsatish talab etilmasa, agent tomonidan sug'urta polisi kuchga kirgan yoki tiklangan kundan keyin daromad deb tan olinadi. Lekin, agentdan polis amalda bo'lgan muddatda keyinchalik xizmat ko'rsatish talab qilinishi ehtimoli mavjud bo'lsa, komission haq yoki uning qismi kechiktiriladi va polis kuchga ega bo'lgan davr mobaynida daromad sifatida tan olinadi.

5. Abonement yig'implari. San'atkorlarning chiqishlari, banketlar va boshqa alohida hollardan tushum bunday hollar ro'y berganda daromad sifatida tan olinadi. Qator voqealarga chiptalar sotilganda, to'lov har bir voqea

ko'rsatilgan vaqtda ko'rsatilgan xizmat hajmi bo'yicha har bir voqea orasida taqsimlanadi.

6. O'qitish uchun to'lov. Daromad o'qitish davri mobaynida tan olinadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobotni tuzish chog'ida "izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar"da quyidagi ma'lumotlarni ochib berishi lozim:

1. Daromadni tan olish uchun qabul qilingan hisob siyosati, shu jumladan xizmat ko'rsatishni o'z ichiga olgan bitimlarning nihoyasiga etishi bosqichlarini belgilash uchun qabul qilingan usullar.

2. Daromadning hisobot davri davomida aks ettirilgan har bir muhim toifasi miqdori, shu jumladan quyidagilardan olingan daromadlar: tovarlarni sotishdan, xizmat ko'rsatishdan, foizlardan, royaltidan, dividendlardan.

3. Daromadlarning har bir muhim toifasiga kiritilgan tovarlar yoki xizmatlarni ayirbosh qilishdan olingan daromad miqdori.

Tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar";

9020 "Tovarlarini sotishdan daromadlar";

9030 "Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar";

9040 "Sotilgan tovarlarning qaytishi";

9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar".

9010 "Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar", 9020 "Tovarlarini sotishdan daromadlar", 9030 "Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar" schyotlarining kreditida korxonaning asosiy faoliyati (tayyor mahsulotlar, tovarlarni sotish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish)dan daromadlar olinadigan schyotlar va pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi, biroq, oldingi hisobot davrlarida olingan, ammo joriy hisobot davriga tegishli bo'lgan daromad summolari 6230 "Boshqa kechiktirilgan daromadlar" schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Mahsulot, tovar, ish, xizmatlarni sotishda 9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”, 9020 “Tovarlarni sotishdan daromadlar”, 9030 “Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” schyotlarida sotishdan tushgan sof tushum summasi aks ettiriladi.

Hisobot davrining oxirida 9010 “Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”, 9020 “Tovarlarni sotishdan daromadlar”, 9030 “Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar” schyotlari 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti bilan yopiladi.

9040 “Sotilgan tovarlarning qaytishi” schyoti sotilgan mahsulot va tovarlarning qaytishini hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Bu schyot asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000) guruhiga kontr-passiv schyot hisoblanadi va uning debet aylanmasi mahsulotlar va tovarlar sotishdan daromadni kamaytiradi. 9040 “Sotilgan tovarlarning qaytishi” schyotining debetida qaytarilgan tovarlar qiymati, tegishli: pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan - xaridorlar va buyurtmachilar tomonidan qaytarilgan tovarlarning qiymati; olinadigan schyotlar bilan - qaytarilgan tovarlar bo‘yicha bekor qilingan debitorlik qarzlari summasi; to‘lanadigan schyotlar bilan - mazkur tovarlar uchun xaridorlar va buyurtmachilardan olingan to‘lovlar va bo‘naklar bo‘yicha vujudga kelgan qarz summasi aks ettiriladi. Bunda ilgari hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i bo‘yicha byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning debeti va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar, olinadigan schyotlarning kreditida yozuv amalga oshiriladi. Qaytarilgan mahsulotlar va tovarlarning tannarxi TMZlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning debetida va sotilgan mahsulotlar va tovarlarning tannarxini hisobga oluvchi tegishli schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

9050 “Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar” schyoti shartnoma shartlariga muvofiq berilgan sotuv chegirmalari, shuningdek sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larda aniqlangan yaroqsizliklar va hokazolar natijasida berilgan narx chegirmalarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu

schyot asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000) guruhiga kontr-passiv schyot hisoblanadi va uning debet aylanmasi mahsulotlar va tovarlarni sotishdan, ish bajarishdan va xizmat ko'rsatishdan daromadlarni kamaytiradi. 9050 "Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar" schyotining debetida sotuv va narxlardan berilgan chegirmalarning summasi tegishli olinadigan schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi

Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000) bo'yicha analitik hisob sotilgan mahsulotlar (tovarlar), bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning har bir turi bo'yicha alohida yuritiladi. Bundan tashqari, analitik hisobni sotuvning geografik segmentlari (hududlar) va korxonani boshqarish uchun zarur bo'lgan boshqa segmentlar bo'yicha yuritish mumkin.

Sotilgan tayyor mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi";

9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi";

9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi";

9140 "Davriy hisobda TMZ sotib olish / xarid qilish";

9150 "Davriy hisobda TMZ bo'yicha tuzatishlar".

Tayyor mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlar sotilganda, sotilgan tayyor mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlarning tannarxi 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi", 9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi", 9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi" schyotlarining debetida tayyor mahsulotlarni (2800), tovarlarni (2900) hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks etiriladi.

Hisobot davrining oxirida 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi", 9120 "Sotilgan tovarlarning tannarxi", 9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi" schyotlari 9910 "Yakuniy moliyaviy natija" schyoti bilan yopiladi.

Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga oluvchi schyotlar (9100)dan amalda foydalanish korxonada qo‘llaniladigan tovar-moddiy zaxiralarning hisob usuliga, ya’ni tovar-moddiy zaxiralarning uzluksiz yoki davriy hisobiga bog‘liq.

Tovar-moddiy zaxiralarni uzluksiz hisobga olish usuli qo‘llanilganda har bir mahsulot yoki tovarning tannarxi uning ishlab chiqarish jarayonidagi harakatiga qarab xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda to‘planadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni davriy hisobga olish usulidan foydalanilganda har bir mahsulot (tovar)ning tannarxi hisobot davri davomida vaqtinchalik 9140 “Davriy hisobda TMZ sotib olish/xarid qilish” schyotida yig‘iladi, biroq sotilgan mahsulotlar, tovarlarning haqiqiy tannarxini faqat TMZ inventarizatsiya qilingandan so‘ng aniqlash mumkin. 9150 “Davriy hisobda TMZ bo‘yicha tuzatishlar” schyoti - hisobot davrining oxirida inventarizatsiya natijasida TMZni mavjudligini aks ettirish uchun foydalaniladigan vaqtinchalik schyot. Ko‘rsatilgan schyotning debeti bo‘yicha TMZning kamayishi, krediti bo‘yicha TMZning o‘sishi TMZni hisobga oluvchi schyotlar (1000-2900) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

9150 “Davriy hisobda TMZ bo‘yicha tuzatishlar” schyotining qoldig‘i 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyotiga o‘tkazilishi orqali yopiladi.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yaratilayotgan mahsulotlarni o‘z vaqtida xaridorlarga, ya’ni chakana va ulgurji savdo nuqtalariga etkazib berish katta ahamiyatga ega. Chunki bizning korxonamiz etkazib bermasa, bizning raqobatchilarimiz etkazib beradi yoki xaridorlar muqobil mahsulotlarni sotib oladilar. Bu borada albatta korxonamiz tashish xarajatlarini amalga oshirishga majbur bo‘ladi. Tayyor mahsulotlarni tashish uchun qilingan sarflar korxonamizning sotish xarajatlari hisoblanadi. Sotish xarajatlari mahsulot tannarxiga kiritilmay davr xarajatlari tarkibida hisobga olinadi va bu xarajatlari korxonamizning yalpi foydasi hisobidan qoplanadi.


Tashish xarajatlari: tovarlarni temir yo‘l, havo, avtomobil, dengiz, daryo transportida tashish xarajatlari, ushbu moddaga tashish xarajatlari hamda

transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to'langan jarimalar ham kiritiladi.

Tayyor mahsulot eng ko'p avtomobil transportida tashiladi. Korxonalar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, sotilayotgan mahsulotlarni tashishni quyidagi shakllardan birida yoki birgalikda olib borishi mumkin:

- o'z avtotransportlarida;
- transport korxonalarining avtotransportlarida;
- ijaraga olingan avtotransportlarda.

Agar korxonalar tayyor mahsulotlarni o'z avtotransportida tashisa quyidagicha xarajatlar bo'ladi.



5-chizma. Sotilayotgan mahsulotlarni tashish shakllari¹⁸.

Avtomobil transportida tashish xarajatlari iqtisodiy jihatdan jonli mehnat xarajatlari hamda buyumlashgan mehnat o'rnini qoplash (ishlab chiqarish vosita va buyumlari) xarajatlaridan iborat ikki guruhga bo'linadi.

Mahsulot tashish xarajatlari o'tkazish usuliga qarab ham ikki guruhga bo'linadi: tashishning bir tsiklida o'z qiymatini tashish xarajatlari qiymatiga to'liq o'tkazadigan mehnat ashyolari (yonilg'i, ehtiyot qismlar, materiallar, ish haqi) xarajatlari hamda ko'p vaqt qatnashib, o'z qiymatini tashish xarajatlari qiymatiga yemirilish va eskirish natijasida qisman-qisman (yil, yil choragi yoki har oyda) o'tkazib turuvchi mehnat vositalari xarajatlari (asosan amortizatsiya ajratmalari xarajatlari).

Barcha chiqimlar yig'indisi ro'yxatini tuzishda ular qanday maqsadlarga va qaysi mahsulotga o'tkazilishidan qat'iy nazar, iqtisodiy

¹⁸ Maullif ishlanmasi.

belgilari bir xil boʻlgan xarajatlarga boʻlinadi va ularga xarajat elementlari deyiladi,

Barcha sohalar va, shu jumladan, avtomobil transporti tashish xarajatlari quyidagi elementlardan iboratdir:

- mehnat haqi xarajatlari;
- ijtimoiy sugʻurta ajratmalari
- materiallar xarajatlari;
- asosiy fondlarni toʻla tiklash amortizatsiya xarajatlari;
- boshqa xarajatlar.

Avtotransport tashish xarajatlarini hosil qilishga qarab ham ikkiga boʻlinadi: bevosita va bilvosita tashish xarajatlari.

Bevosita tashish xarajatlari: shofyorlarning oylik ish haqlari (ish haqlariga qoʻshimcha ajratmalari bilan), yonilgʻi va moylash materiallari xarajatlari, harakatlanuvchi sostavlarga texnika xizmati koʻrsatish va uni joriy tuzatish xarajatlari, avtomobil shinalari yemirilish xarajatlari, harakatlanuvchi sostavlar amortizatsiyasi.

Bilvosita tashish xarajatlariga shu ishlarga umumiy rahbarlik qilish va ularga xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq boʻlgan xarajatlar va transport mahsuloti birligiga kiritish bevosita mumkin boʻlmagan ustama xarajatlar kiradi.

Avtomobil transportida tashish xarajatlarining asosiy moddalariga quyidagilar kiradi:

- shofyorlar ish haqlari va ularga qoʻshimcha ajratmalar
- avtomobillar ishlashi uchun yonilgʻi xarajatlari;
- harakatlanuvchi sostavlarni moylash va boshqa ishlatish materiallari xarajatlari;
- tuzatish (joriy va katta) va harakatlanuvchi sostavlarga texnik xizmat koʻrsatish xarajatlari;
- avtomobil shinalari yemirilishi xarajatlari;
- harakatlanuvchi sostavlar amortizatsiyasi xarajatlari;

— umumxo‘jalik (ustama) xarajatlar.

Avtomobillar yaqin masofaga tayyor mahsulot tashisa, ko‘p yuk tashiydi va kam miqdorli tonna-kilometrli ish bajaradi. Aksincha bo‘lganda esa tonna-kilometrli ish ko‘p bo‘lib, tashilgan yuk xajmi kam bo‘ladi. Birinchi holda avtomobillarni umumiy yo‘l bosish masofasi kam, lekin ishbay usuli bilan shofyorlar mehnatiga haq to‘lashda ular miqdorlari teng yoki bir-biriga yaqin bo‘ladi.

Agar korxonada tayyor mahsulotlarni o‘z avtotransportida tashisa quyidagicha provodkalar bo‘ladi:

Xaridorlarga yetkazilayotgan tayyor mahsulotlarni tashuvchi avtotransport vositalariga yoqilg‘i-moylash materiallari sarflandi:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 1030 “Yoqilg‘ilar”

Shofyorlarga ish haqi hisoblandi:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisob - kitoblar”

Shofyorlarning ish haqiga nisbatan yagona ijtimoiy to‘lov hisoblandi:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 6520 “Davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar”

Sotilayotgan mahsulotni tashiyotgan avtotransport vositalariga eskirish hisoblandi:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 0260 “Transport vositalarning eskirishi”

Tayyor mahsulotlarni tashiydigan avtotransport vositalari joriy ta‘mirlandi:

D-t 9410 “Sotish xarajatlari”

K-t 1040 “Ehtiyot qismlar”

Sotish xarajatlari yakuniy moliyaviy natijaga o‘tkazildi:

D-t 9910 “Yakuniy moliyaviy natija”

K-t 9410 “Sotish xarajatlari”

Agar korxonaga tayyor mahsulotlarini tashishda transport korxonalarining avtotransportlaridan foydalansa, ko'rsatilgan xizmatlar uchun taqdim qilingan transport korxonalarining schet-fakturada ko'rsatgan summalarini to'laydilar. Bunda quyidagicha provodkalar berish mumkin:

Schet-fakturada taqdim qilinganda xizmat va QQSning summasiga:

D-t 9410 "Sotish xarajatlari"

D-t 4410 "Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari"

K-t 6990 "Boshqa majburiyatlar"

Transport korxonasiga pul o'tkazilganda:

D-t 6990 "Boshqa majburiyatlar"

K-t 5110 "Hisob-kitob scheti"

Sotish xarajatlari yakuniy moliyaviy natijaga o'tkazildi:

D-t 9910 "Yakuniy moliyaviy natija"

K-t 9410 "Sotish xarajatlari"

Agar korxonaga tayyor mahsulotlarini tashishda qisqa muddatga ijaraga olingan avtotransport vositalaridan foydalansa, ijara to'lovlari summasini sotish xarajatlariga o'tkazadi. Bunda quyidagicha provodkalar berish mumkin:

D-t 9410 "Sotish xarajatlari"

K-t 6910 "To'lanadigan qisqa muddatli ijara haqi"

Qisqa muddatli ijara haqi to'langanda:

D-t 6910 "To'lanadigan qisqa muddatli ijara haqi"

K-t 5110 "Hisob-kitob scheti"

Sotish xarajatlari yakuniy moliyaviy natijaga o'tkazildi:

D-t 9910 "Yakuniy moliyaviy natija"

K-t 9410 "Sotish xarajatlari"

Agar korxonaga tayyor mahsulotlarini tashishda foydalanilgan avtotransportini moliyalanadigan lizing shartnomasi bo'yicha olgan bo'lsa, unda tashish xarajatlari xuddi o'zining avtotransportidan foydalanganday hisobga olinadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tashish xarajatlariga transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to'langan jarimalar ham kiritiladi. Masalan, Sotish uchun xaridorlarga jo'natilayotgan tayyor mahsulotni tashish uchun transport korxonasiga buyurtma qilingan avtotransport (poezd, samolyot, kema) o'z vaqtida yuk to'ldirilmadi va u shartnomada ko'rsatilmagan muddatda bizning aybimiz bilan ushlanib qoldi. Buning uchun transport korxonasi bizga jarima soldi:

D-t 9410 "Sotish xarajatlari"

K-t 6990 "Boshqa majburiyatlar"

Jarima to'landi:

D-t 6990 "Boshqa majburiyatlar"

K-t 5110 "Hisob-kitob scheti"

Ushbu xarajat O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 147-moddasiga muvofiq doimiy farq, ya'ni soliq solianadigan bazadan chegirilmaydigan xarajat hisoblanadi. Bu esa xo'jalik shartnomalarini o'z vaqtida bajarishni talab etadi.

Mahsulotning xaridorga yetib borishi har gal ham avtomatik ravishda amalga oshmaydi. Faqat mahsulot taqchilligi sharoitidagina bozor to'g'ri kelgan mahsulotni "yutib" yuborishi mumkin. Bunday holda bozor talabni vujudga keltiruvchi sifat, baho, mavsumiylik kabi mahsulotning muhim omillarini hisobga olmaydi. Lekin hozirda mavjud jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz bunga umuman teskari holat hisoblanadi. Chunki hozirgi inqiroz iste'mol bozorining to'yinishi natijasida vujudga keldi, ya'ni taklif juda ko'p, talab esa kam. Bunday sharoitda bozorni o'rganmay oldingiday mahsulot ishlab chiqarish korxonani juda qiyin ahvolga solib qo'yadi. Bunday sharoitda yangi talablarni yaratish uchun sotish bozorlarini o'rgangan holda yangi-innovatsiya mahsulotlarini ishlab chiqarish lozim.

III bob. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish auditini o'tkazish

3.1. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish auditini rejalashtirish

Audit o'tkazish bo'yicha shartnoma tadbirkorlik jamiyatida qo'llaniladigan shartnomalar kabi mijoz va auditorning o'zaro munosabatini aniqlash rasmiy hujjatdir. Ammo bu shartnomani boshqalardan farqi shundan iboratki, unda uchinchi shaxslarning qiziqishini ham e'tiborga olishadi. Audit o'tkazish bo'yicha shartnoma qanchalik aniq tuzilgan bo'lsa, mijoz va auditor o'rtasidagi o'zaro munosabat shunchalik qarama-qarshiliksiz bo'ladi.

Korxonaga to'g'risidagi umumiy axborot hisobotlarining haqiqiyliги haqida asoslangan xulosaga kelish uchun zarur. Xususan, korxonaning faoliyat va tarmoq xususiyatlarini, ularning tashkiliy tuzilishini, ishlab chiqarish, moliyaviy va boshqa aloqalarini aniqlash, yuridik majburiyatlari bilan tanishish kerak.

Dastlabki rejalashtirish jarayonida auditor mijoz bilan hamkorlik qilishning maqsadga muvofiqligi masalasini xal qilish kerak; mijozni auditor xizmatiga muxtojligi sabablarini aniqlash lozim, tekshiruv amalga oshirish uchun shtatni shakllantirish hamda mijoz bilan shartnoma tuzishi zarur.

Auditorlik tekshiruvini amalga oshirishda muddat muammosi borligi sababli korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyatini to'liq tekshirish imkoniyati yo'q. Shuning uchun tekshiruvni amalga oshirishda mijozning individual xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Audit rejasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- dastlabki rejalashtirish;
- korxonaga tarmog'ida umumiy axborotni to'plash;
- materiallarni baholash;
- auditorlik tavakkalchilikni baholash;
- ichki nazorat tizimini baholash.

Auditorlik tekshiruvining samaradorligi uni rejalashtirish bosqichida baholanishi zarur.

Auditorlik dasturi yozma ravishda tayyorlanadi. Dasturda auditorlik tekshiruvini rejasini bajarish uchun zarur bo'lgan hamma jarayonlar to'liq

ravishda yoritiladi. Dasturning shunchalik mukammal tayyorlanishiga sabab shundan iboratki, u auditda qatnashuvchi xodimlar uchun qo‘llanma vazifasini bajaradi, hamda tekshiruv bajarilishining to‘g‘riligining nazorat qurolidir.

Dastur auditorlik guruhi a‘zolarining barchasi ular oldiga qo‘yilgan talablarni bilishlarini ko‘zda tutadi. Dastur auditorlik guruhlaridagi kichik auditorlar va assistentlar tomonidan belgilangan vazifalarni bajarishini nazorat qiluvchi asosiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

Dasturda audit uchun zarur xodimlar soni, ular ishining hajmi va mazmuni aniqlanadi. Odatda audit asosiy auditor, kichik auditor va assistentlardan tashkil topgan guruh tomonidan o‘tkaziladi.

Sub’ektlarning ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulotlar tannarxini hisoblashni auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishdan maqsad sodir bo‘lgan xo‘jalik muomalalarini hisobga olish va soliqqa tortishda qo‘llanilayotgan tartibning O‘zbekiston Respublikasi me‘yoriy xujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlari va soliqqa tortish hisobini tartibga soluvchi asosiy xujjat O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 54-sonli qarori “Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” va O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan sarflar va xarajatlar: boshqaruv xarajatlari, mahsulot sotish xarajatlari va boshqa umumxo‘jalik xarajatlari davr xarajatlari deb tushuniladi.

Davr xarajatlarini tekshirish ularni tarkibini to‘g‘ri aniqlashdan boshlanadi. Chunki ba’zida ishlab chiqarishga taalluqli xarajatlar davr xarajatlari tarkibida hisobga olinishi zarur bo‘lgan xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlariga qo‘shilib ketishi mumkin. Bu esa ishlab chiqarish tannarxini o‘zgartirishga olib keladi.

Ishlab chiqarish jarayoni davomida amalga oshiriladigan, ishlab chiqarish texnologiyasi va tashkil qilinishini takomillashtirish bilan bog‘liq, shuningdek mahsulot sifatini yaxshilash, ishonchliligini kuchaytirish, xizmat muddatini uzaytirish va boshqa iste‘mol xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan xarajatlar tekshirilganda bu xarajatlarni rejaga yoki avvalgi yilga nisbatan o‘zgarishi ko‘rib chiqiladi. Bu modda bo‘yicha kamayish aniqlansa bu salbiy ta‘sirini ko‘rsatishi mumkin.

Sotish va davr xarajatlariga taalluqli turli nobudgarchiliklar va zararlarini auditor sinchiklab tekshirishi lozim, chunki bunday zararlardan korxonalar soliq to‘lashi lozim. Bunday zararlarga shartnomalarini shartlarini buzganligi uchun jarimalar, penya va boshqa sanksiyalar, shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplash uchun xarajatlar: daromadni yoki boshqa soliqqa tortish ob‘ektini yashirganlik (kamaytirib ko‘rsatganlik) uchun jarimalar; davo muddati o‘tib ketgan debitorlik qarzlari va boshqa undirilishi dargumon bo‘lgan qarzlarni hisobdan chiqarish bo‘yicha zararlar va hokazolalar kiradi.

Mahsulotni sotish bilan bog‘liq xarajatlarni tekshirish ushbu mahsulotni o‘rash, saqlash, tashish xarajatlari me‘yor chegarasidan chiqmasligi, ularni to‘g‘ri rasmiylashtirish va hisobga olishni aniqlashdan iboratdir.

Tayyor mahsulot ishlab chiqarish avvaldan tuzilgan buyurtma va shartnomalari asosida amalga oshirilishi kerak. Shartnoma va buyurtmalarsiz ishlab chiqarilgan mahsulot omborlarni tovarlar bilan to‘lib yotishi, xo‘jalik mablag‘larni sekinlik bilan aylanishi natijasida moliyaviy ahvolni murakkablashishiga olib kelishi mumkin.

Tekshirish davrida xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar, ma‘lumotlari tayyor mahsulot ishlab chiqarilish dasturi bilan muvofiqlashtirilganligi aniqlanadi.

Xaridorlar bilan tuzilgan shartnomalar, mahsulot ishlab chiqarish rejalari ma‘lumotlari asosida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotni turlari va assortimenti bo‘yicha taqqoslanadi.

Tekshirish jarayonida mahsulot ishlab chiqarish va yetkazib berish bir me'yorda amalga oshirilishi aniqlanadi. Buning uchun korxonada ishlab chiqarilgan reja va grafiklardan foydalanadi. Tekshiruv vaqtida mazkur rejalar mahsulot jo'natilishi muddatlari bilan kelishilganligi aniqlanadi.

Tayyor mahsulot ishlab chiqarilishining buxgalteriya hisobida tekshirilganda ishlab chiqarishdan qabul qilingan tayyor mahsulotni hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirilganligiga ahamiyat beriladi. Ba'zi hollarda tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda qabul qilinishini aks ettiruvchi dalolatnoma va yukxatlarga ishlovi to'liq berilmagan, texnologik jarayonlari tugatilmagan, hujjatlarda to'liq aks ettirilmagan buyumlar kiritiladi.

Bunday hollarni aniqlash maqsadida mas'ul shaxslar tayyor mahsulotni tsexlarda saqlanishi bo'yicha tilxatlar yoki boshqa hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Tekshirish vaqtida alohida e'tibor tayyor mahsulotning to'g'ri baholanishiga qaratiladi, chunki baholash mahsulotning tannarxiga va moliyaviy natijalarga tasir etadi.

Korxonada qabul qilingan hisob siyosatiga muvofiq tayyor mahsulot joriy hisobda barqaror hisob narxlarda aks ettiriladi. Bunday hisob narxlar sifatida rejadagi (normativ) tannarx yoki shartnomaviy sotiladigan baholardan foydalanish mumkin, hisobot davrining oxirida mahsulotning haqiqiy tannarxi bilan hisob narxlari orasidagi farqi aniqlanadi va alohida hisobga olinadi.

Tashkilot tomonidan chetdan qayta sotish uchun xarid qilingan tovarlar xarid qiymati bo'yicha hisobga olinishi mumkin. Tovarlarni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ular yuzaga kelgan hisobot davrida tashkilotlarning davr xarajatlari (sotish bo'yicha) kiritiladi.

Mahsulot (ish, xizmat) sotilishi hisobini tashkil qilishda sotilgan mahsulot, tovarlar, ish va xizmatlarning har birining alohida turi bo'yicha yuritilib, sotilayotgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlarning tarkibiy tuzilishi hamda ularning har birining umumiy sotilish summasidagi hissasi, har qaysining rentabellik darajasi va boshqa ma'lumotlar aks ettirilishi lozim.

Sotilgan mahsulot 9010-“Mahsulot sotishdan olingan daromadlar”, 9020-“Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar”, 9030-“Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar” schyotlarida hisobga olinadi. 9040-“Sotilgan tovarlarning qaytarilishi” va 9050-“Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar” schyotlarida sotilgan tovarlarning qaytarilishi hamda xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar aks ettiriladi.

9010, 9020, 9030-schyotlarning kreditida 4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” schyot bilan korrespondentsiyalangan holda mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olinadigan sof tushum aks ettiriladi. Bu schyotlarda xaridorlarga jo‘natilgan mahsulot (ish, xizmat)lar bo‘yicha hisoblangan aksiz solig‘i va QQS summalari aks ettirilmaydi. Tayyor mahsulotning sotilishida sotish bahosining aks ettirilishiga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”,

Kredit 6410-“Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz”,

Kredit 9010-“Mahsulot sotishdan olingan daromad”.

“Xaridorlarga yuklab jo‘natilgan mahsulotlar harakati”ning hisobi 16-qaydnomaning 2-bo‘limida yuritiladi. Yuklab jo‘natilgan va sotilgan mahsulotlarning schyotlari bo‘yicha sintetik hisob 11-jurnal-orderda yuritiladi. Bu jurnal-order 2810-“Ombordagi tayyor mahsulotlar”; 9410-“Sotish xarajatlari”; 9010-“Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar”; 9020-“Tovarlarni sotishdan daromadlar”; 9030-“Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishda daromadlar”; 9210-“Asosiy vositalarning chiqib ketishi”; 9220-“Boshqa aktivlarning chiqib ketishi”; 4010-“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar” schyotlarning kredit oborotlarini va 9010, 9020, 9030-schyotlarning analitik ma‘lumotlarini yozish uchun mo‘ljallangan. 11-jurnal-order 15 va 16-qaydnomalarning analitik ma‘lumotlariga asosan to‘ldiriladi.

Hisobot davri yakunida 9010, 9020, 9030-schyotlar yopiladi:

Debet 9010, 9020, 9030

Kredit 9900-“Yakuniy moliyaviy natija”

Shu bilan birga sotilgan mahsulotning tannarxi ham hisobot davri yakunida yakuniy moliyaviy natijaga o'tkaziladi:

Debet 9900-“Yakuniy moliyaviy natija”,

Kredit 9110-“Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi”,

Kredit 9120-“Sotilgan tovarlarning tannarxi”,

Kredit 9130-“Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi”.

3.2. Aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulot sotish auditini o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish

Sub'ektlarning ishlab chiqarish xarajatlari hisobining to'g'riligini va mahsulot, ish xamda xizmatlar tannarxi to'g'risidagi hisobotni tuzishning to'g'riligini nazorat qilish uchun quyidagilarni tekshirish lozim: hisobot davridagi haqiqiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarida o'z vaqtida, to'liq va ishonarli aks ettirilishi; ishlab chiqarishga xarajat qilingan xom ashyolar, materiallar, yoqilg'ilar, ehtiyot qismlar va yoqilg'i-moylash materiallarini baholashning to'g'riligi; belgilangan xarajat smetalari, lavozim maoshlari, tarif stavkalari, ishlab chiqarish xodimlarining mehnatiga xaq to'lash va mukofotlash haqidagi Nizomga rioya qilish ustidan nazoratning ta'minlanganligi; noishlab chiqarish sarflari va yo'qotishlarning paydo bo'lish sabablari xamda hisobdan o'chirilishning asoslanganligi; ularni kamaytirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar; asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga eskirish hisoblashning to'g'riligi; tovar-moddiy boyliklarning hisob bahosidan chetga summalar (transport tayyorlov xarajatlari)ni hisobdan o'chirishning to'g'riligi; tovarlar va boshqa qiymatliklar tabiiy kamayishini hisobdan o'chirishning to'g'riligi; xarajatlarni mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga qo'shishning to'g'riligi va asoslanganligi; xizmat safarida va yo'lda bo'lgan vaqt, turar-joy ijarasi, xizmat safari joyiga borish yo'l xarajatlari uchun tasdiqdangan me'yorlar doirasida, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq chet el xizmat safari xarajatlari.

Sub'ektlarning asosiy xarajatlari, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlarining to'g'ri va asoslangan xamda me'yorlarga

muvofigligini tekshiriladi. Mahsulot (ish, xizmat)larning rejadagi va hisobot kalkulyatsiyasining to'g'riligi xarajat moddalari bo'yicha tekshiriladi. Xom-ashyo va materialarni sarflashning to'g'riligi, baholar to'g'riligini tekshirish metodlari, mahsulot (ish, xizmat) birligiga to'g'ri keladigan sarf me'yoriga rioya qilinishi tekshiriladi. Brak (yaroqsizlik)dan ko'rilgan yo'qotishlar va ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarini yopishning to'g'riligini tekshirish.

Auditor shuni yaxshi bilishi zarurki, mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxi buxgalteriya hisobida oddiy faoliyat turlari bo'yicha hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat kursatish) va realizatsiya bilan bog'liq sarflar yig'indisi kabi aniqlanadi.

Tannarx soliqqa tortish maqsadlarida hisob elementi sifatida esa soliqqa tortiladigan bazani kamaytiradigan miqdor bo'lib hisoblanadi. Ushbu ta'rifdagi tafovut faqat shaklan ya'ni atamashunoslik nuqtai nazaridan emas, balki miqdor jihatidan hamdir. Chunki, soliqqa tortish maqsadida hisoblanadigan tannarxga odatdagi faoliyat turlariga doir sarflar belgilangan me'yorlar va cheklashlarni hisobga olgan holda qo'shiladi. Mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) xarajatlari to'langan vaqtidan qat'iy nazar (oldin yoki keyinchalik to'langan), qaysi hisobot davriga taalluqli bo'lsa, shu davr tannarxiga qo'shiladi.

Sub'ektlarning xo'jalik faoliyatidagi faktlarning vaqtinchalik aniqlik tamoili tannarxni to'g'ri shakllantirish uchun tovar moddiy zaxira (ish, xizmat)lar qiymatining to'langanlik fakti emas, balki ularni ishlatish(sarflash) fakti ahamiyatli ekanini bildiradi. Masalan, auditorga tekshiruv o'tkazish uchun taqdim qilingan xujjatlar mazmunidan ma'lum bo'lishicha, tekshirilayotgan tomonidan o'tgan yili dekabr oyida keyingi yil uchun ishlab chiqarish binolarining ijara haqi to'langan. Ushbu sarf shu vaqtning o'zida ya'ni o'tgan yili dekabr oyida mahsulot(ish, xizmat)lar tannarxiga olib borilgan.

Auditor ushbu xo'jalik muomalasini asossiz, ya'ni o'tgan yildagi mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxini sun'iy ravishda oshirgan va moliyaviy natijani xamda foyda solig'ini pasaytirgan deb topdi va tuzatish kiritishni tavsiya qildi. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunining

9-moddasiga muvofiq korxonada sodir etilgan barcha xo‘jalik muomalalari amalga oshirilayotgan vaqtda yoki amalga oshirilib bo‘lingandan so‘ng tegishli dastlabki xujjatlar bilan rasmiylashtirilishi lozim. Xarajatlarni xujjatlashtirish tamoyili auditorning xarajatlarni asoslash uchun isbotlovchi xujjatlarning mavjudligi, xamda ushbu muomalalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning to‘g‘riligini tasdiqlash vazifasini belgilab beradi.

Auditor xarajatlar tarkibini batafsil tahlil qilib chiqishi uchun xar bir xarajat guruhidagi iqtisodiy elementlarni tekshirib chiqishi lozim.

Yuklab jo‘natish usuli qo‘llanilganda mahsulot va tovar jo‘natilib, ishlar va xizmatlar bajarilganidan keyin, ularning hisob-kitob hujjatlari xaridor (buyurtmachi)ga taqdim etilgan bo‘lsa, ana shunday mahsulot (ishlar, xizmat)lar va tovarlar sotilgan hisoblanadi. Hisob-kitob hujjatlari xaridor (buyurtmachi)ga shartnomada ko‘zda tutilgan usulda berilgan vaqtdan e‘tiboran bu hujjatlar xaridor (buyurtmachi)ga taqdim etilgan hisoblanadi. Agar shartnoma shartlariga ko‘ra xaridor (buyurtmachi) mahsulotni bevosita ishlab chiqaruvchi korxonaning o‘zida qabul qilsa, u holda bunday mahsulot xaridor (buyurtmachi)ga topshirilib, shartnomada ko‘zda tutilgan hujjatlar rasmiylashtirilib, hisob-kitob hujjatlari xaridor (buyurtmachi)ga yoxud uning vakiliga taqdim etilganidan keyin sotilgan hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari jo‘natilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar yuzasidan ushbu mahsulot, ish va xizmatlar qiymatini to‘lash vaqti hamda haqiqatan pul kelib tushishidan qat’iy nazar, jo‘natilgan mahsulot ish va xizmatlar qiymatidan davlat byudjetiga soliq hisoblashlari va uni buxgalteriya hisobida o‘sha hisobot davrida aks ettirishlari lozim. Demak, yuqorida aytilganlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, hozirgi xo‘jalik yuritish sharoitida korxonalar va muassasalarda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar pulning qachon kelib tushishidan qat’iy nazar, ular xaridor korxonalarga jo‘natilgan vaqtdan boshlab realizatsiya qilingan deb hisoblanadi. Chiqib ketayotgan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati chiqib ketish dalilini

aniqlash paytida balansdan hisobdan chiqarilishi kerak. Tovar-moddiy zaxiralar tashkilotning balansidan:

- sotish;
- boshqa tashkilotning ustav kapitaliga ta'sis ulushi ko'rinishida berish;
- muassisning muassislari tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning mol-mulkini uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlayotganda ilgari tashkilotning ustav kapitaliga kiritilgan ulushni muassisga qaytarish;
- tekinga berish;
- ayirboshlash;
- saklash muddati tugagach yaroqsizligi sababli, jismonan va ma'nan eskirganligi natijasida tugatish (yo'q qilish);
- kamomad, yo'qotish yoki shikastlanish (sinish, bo'linish) aniqlanishi;
- tovar qarzi ko'rinishida taqdim etish yoki ilgari olingan tovar qarzini qaytarish;
- boshqa operatsiyalar va hodisalar natijasida hisobdan chiqariladi.

Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromad operatsiya bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy naf xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan olingan taqdirdagina tan olinadi. Daromadga kiritilgan miqdorni undirish xususidagi noaniqlik vujudga kelgan taqdirda, qaytarilmagan miqdor yoki olish mumkin bo'lmagan miqdordagi pul dastlab tan olingan daromad miqdorining o'zgartirilishi sifatida emas, balki xarajat sifatida tan olinadi.

Korxonani sotish rejasining bajarilishiga qarab baholash korxonani rahbarlarini mahsulot sotish va moliyaviy faoliyat masalalariga ko'proq e'tibor berishga chaqiradi hamda korxonaning bir maromda ishlashiga va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bular esa, o'z navbatida, korxonadagi ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xaridorlar tomonidan to'langan pul mol etkazib beruvchi korxonaning hisob-kitob schyotiga kelib tushadi. Mol etkazib beruvchi tashkilotlarning

tayyor mahsuloti xaridorlar tomonidan shu mahsulotni tayyorlovchi korxonaning o'zida bevosita qabul qilib olinsa yoki u mahsulot tranzit usuli bilan (ta'minot, sotish tashkilotlarining ishtirokisiz) jo'natilsa, mahsulotning xaridorga topshirilishi tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi va u moliyaviy natijalarga kiritiladi.

Tayyor mahsulotni xaridorga jo'natish xaridor bilan avvaldan tuzilgan shartnomalarga asosan amalga oshiriladi. Bu shartnomalarda jo'natiladigan mahsulotni muddati, miqdori, qiymati va hisob-kitob shartlari aks ettiriladi.

Auditor shartnomalardagi shart-sharoitlarni to'liq aks ettirilishini tekshiradi. Undan tashqari mahsulot jo'natilishi hisob schyot-faktura, chiqim yukxati, to'lov talabnomasi va boshqa hujjatlarda to'g'ri rasmiylashtirilganligi aniqlanadi.

Mahsulot jo'natilganda uning sotilishi narxi to'g'ri hisoblanishi, ya'ni unga qo'shilgan qiymat, aksiz va boshqa soliqlar qiymati, mahsulotni xaridorga yetkazish uchun sarflanadigan transport tayyorlov xarajatlari summasi qo'shilishi tekshiriladi.

Auditor jo'natilgan mahsulotning haqiqiy tannarxi to'g'ri aniqlanishini tekshiradi. Buxgalteriya hisobini milliy standartlariga binoan mahsulot jo'natilgan vaqtdan boshlab sotilgan deb hisoblanadi.

Tayyor mahsulot xaridorlarga jo'natilganda uning haqiqiy tannarxi noma'lum bo'ladi, chunki uning haqiqiy tannarxi oyning oxirida aniqlanadi. Shuning uchun joriy hisobda jo'natilgan tayyor mahsulotlar hisob narxlarida rasmiylashtiriladi.

Hisob narxlari sifatida rejadagi tannarx yoki shartnoma narxlari qo'llaniladi. Hisobot davrining oxirida jo'natilgan mahsulotning haqiqiy tannarxi va uning hisob narxlari bilan farqi aniqlanadi.

Auditorlik xulosasi korxonada moliyaviy hisobotlarining haqiqiyliги va ob'ektivligi haqidagi mustaqil guvohnoma.

Auditor auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha hisobot va auditorlik xulosasini tuzadi. Auditorlik hisoboti uch qismdan iborat:

- kirish;
- tahliliy;
- yakuniy.

Kirish qismi - o'z ichiga auditorlik firmasining barcha rekvizitlarini oladi.

Tahliliy qismda tekshirilgan moliyaviy axborotni va auditni ifodalaydi.

Ijobiy auditorlik xulosasi korxonaning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holatini aks ettirgan holda beriladi. Ijobiy auditorlik xulosasini auditor quyidagi hollarda beradi:

- moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobining aniq va ob'ektiv ma'lumotlari asosida vijdonan tayyorlanganda;
- buxgalteriya hisobi belgilangan tamoyillar va talablarga mos kelganda, hamda korxonaning hisob siyosati to'g'ri tanlanganda;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar o'z vaqtida hamda to'liq to'langanda;
- ichki nazorat xo'jalik operatsiyalarining samaradorligini va maqsadga muvofiqligini tasdiqlaganda.

Shartli ijobiy auditorlik xulosasi moliyaviy munosabatlarning haqligi shartli tasdiqlanganda beriladi. Auditor ba'zi bir masalada norozi bo'lganda beriladi. Uning noroziligiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- korxonalar bilan xo'jalik faoliyatini ba'zi dalillari va moliyaviy hisobotning ko'rsatkichlari bilan fikrining ajralishi;
- hisob siyosatidagi baholash usullari bo'yicha, eskirish miqdorining to'g'ri hisoblanganligi bo'yicha;
- hisob varaqalarining o'zaro bog'liqligi xo'jalik amaliyotlarini iqtisodiy va huquqiy mazmuniga mos kelmaganda;
- qonunchilik hujjatlarini va boshqa me'yoriy hujjatlarni tushunishning hamda qo'llashning turlichaligi;
- moliyaviy axborotning haqiqiylikiga ta'sir qiluvchi korxonaning noadvakat hisob siyosati.

Salbiy auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotning haqiqiyliги bo'yicha auditorning ishonchi yo'q bo'lgan hollarda beriladi. Bundan tashqari auditor xulosasida auditor moliyaviy tavakkalchiligini harakatdagi qonunchilik va buxgalteriya hisobi me'yoriy hujjatlariga mos kelmaslik sabablari ko'rsatilishi kerak.

Auditorlik xulosasini berishdan bosh tortish - tekshiruv hajmi cheklanishlari shunchalik moddiyki, auditorga moliyaviy hisobotlarning holati bo'yicha xulosa berishga asos bo'lmaydi.

Auditorlik hisoboti berilgan muddati ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Auditorlik hisobotiga qo'l qo'yilgandan keyin hisobot berilgan vaqtgacha bo'lgan hamma voqealarga asoslangan dalillarni o'rganish va tekshirish ko'rsatiladi. Auditor o'z hisobotining muddati mijozning moliyaviy hisobotlarida ko'rsatilgan vaqtdan ilgari bo'lishi mumkin emas.

Auditor o'z hisobotining muddatigacha bo'lgan barcha tuzatishlar zarur bo'lgan voqealar aniqlanganligiga ishonch hosil qilgan bo'lishi kerak. Bu hollar bo'yicha auditor ma'lumotnoma tayyorlaydi. Auditorlik hisoboti berilgan vaqtdan keyin auditor korxonani moliyaviy holatida bo'lgan hamma o'zgarishlar bo'yicha javobgar emas.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan yaratilayotgan mahsulot (ish va xizmat) lar sotish xarajatlarining shakllanishini to‘g‘ri tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Chunki, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish va xizmat)ning xaridorgir bo‘lishi ularning sifatligi va tannaxsining arzonligi bilan birga ularni iste‘molchilarga yetkazib berishga, mahsulotlar to‘g‘risida iste‘molchilarga axborotlarni shakllantirilishiga bog‘liq. Sotish xarajatlarining samaradorligiga erishish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish va xizmat)larning sotish hajmining oshishiga, natijada, moliyaviy natijaning ijobiy bo‘lishiga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish muminki, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda sotish xarajatlarining samaradorligini oshirish, hozirgi sharoitda sotish xarajatlarini minimallashtirgan holda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish, ularning hisobini to‘g‘ri yuritish hamda auditini o‘tkazish muhim ahamiyatga ega.

Mavzuni o‘rganish jarayonida, bitiruv malakaviy ishining natijasi sifatida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Mahsulotlar sotish xarajatlarining asosiy salmog‘ini tashish xarajatlari egallaydigan korxonalarda tashish xarajatlarini kamaytirish maqsadida tayyor mahsulotlarni iste‘molchilarga yetkazishning optimal variantlarini ishlab chiqish lozim. Buning uchun tashish jarayonini matematik programmashtirish lozim, ya‘ni tayyor mahsulotlarni tashishda eng kam xarajat qiladigan variantni topish uchun “Transport masalasi”dan foydalanish lozim.

2. Reklama xarajatlarining samaradorligiga katta e‘tibor qaratish lozim. Tadqiqotlar natijasida reklama faoliyatining boshida amalga oshirilgan tadbirlar va ko‘plab xarajatlar samarali ekanligini va vaqt o‘tib borishi bilan ularning samarasi pasayib borishi isbotlangan. Shuning uchun mahsulotlarni reklama qilishda reklama vositachilarini diversifikatsiya qilish lozim. Bundan tashqari reklama turlarini iste‘molchilarning eng ko‘p qismiga yetib boradigan qilib tashkillashtirish, hamda zamon talablariga moslashtirish lozim.

3. Sotish xarajatlari auditining xotima qismida ishga solinmagan ichki imkoniyatlar hisobiga mahsulot hajmini oshirish imkoniyatlari aniqlanmog‘i lozim. Ishga solinmagan imkoniyatlar sotish hajmini oshirishga, foyda va rentabellikni ko‘paytirishga qaratilmog‘i lozim. Belgilanadigan tadbiriy choralar korxonaning barcha bo‘g‘inlarini o‘z ichiga olishi kerak, ya’ni ishlab chiqarish, moliyaviy holat, moliyaviy natijalarni samaradorligini oshirishga qaratilmog‘i lozim.

Shunday qilib, aksiyadorlik jamiyatlarida mahsulotlarni sotilishi, sotish xarajatlarining buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil qilish, yuritish va ularning auditini tashkil etish bo‘yicha bildirilgan fikr-mulohazalar hamda taklif-tavsiyalar aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida foydalanilsa, o‘ylaymizki sotish xarajatlarini kamaytirgan holda, ularning samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratgan bo‘lard.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Yangi taxriri. 2007 yil 22 noyabrda tasdiqlangan.
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. 21.12.1995 yil tasdiqlangan, 01.04.1996 yildan kuchga kirgan.
4. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni 1996 yil 30 avgust.
5. O'zbekiston Respublikasining 26.04.1996 yildagi N223-I sonli "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 29.08.1996 y. 257-I-son Qaroriga muvofiq 01.03.1997 yildan e'tiboran amalga kiritilgan "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi" (o'zgarishlar bilan).
7. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 mayda qabul qilingan "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri).
8. O'zbekiston Respublikasining 06.12.2001 yildagi N310-II sonli "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasining 11.12.2003 yildagi N558-II-sonli "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi Qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 26 avgustdagi 662-II-sonli "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri).

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari.

11. O'zbekiston Respublikasi. Prezidentining "Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni. 1995 yil 12 may, 2003 yil 4 iyuldagi o'zgartirishlar bilan.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 2005 yil 6 oktyabr.

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 4 apreldagi ”Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida”gi PQ–615-sonli Qarori;

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 iyuldagi “Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–907-sonli Qarori.

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni

III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

16.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini shakllantirish tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomi. 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori.

17.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to‘g‘risida”gi 365-sonli qarori.-T.: “Xalq so‘zi”, 2000 y, 26 sentyabr.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 5 noyabrdagi “Ulgurji savdo faoliyatini litsenziyalash to‘g‘risida NIZOM” 242-son qarori bilan tasdiqlangan. ”Xalq so‘zi”, 2005 y, 5 noyabr.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16 oktyabrdagi “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarining samarali boshqarilishini va davlat mulkini zarur darajada hisobga olinishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 215-sonli Qarori

20.O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Buxgalteriya hisobining milliy standartlari” 1998-2010 yillar.

21.O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Auditorlik faoliyatining milliy standartlari” 1998-2010 yillar.

IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

- 22.Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” — T.: O‘zbekiston, 2009.
- 23.Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O‘zbekiston . 2010
- 24.Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: O‘zbekiston . 2011.
- 25.Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. T.: O‘zbekiston. 2012 yil
- 26.Каримов И.А. “Буюк ва мукаддасан, Мустақил Ватан”. Илмий-оммабоп рисола. Т.: “Ўзбекистон” 2011.
- 27.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. T.: O‘zbekiston. 2013 yil.
- 28.Karimov I.A. 2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. T.: O‘zbekiston. 2014 yil.

V. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar.

- 29.Bobojonov O. Moliyaviy hisob. Darslik. Buxgalteriya hisobining xalqaro (IAS), Amerika (GAAP) va milliy (BHMS) standartlariga asosan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan. – T.: Moliya, 2002.-456 b.
- 30.Войтоловский Н.В. Экономический анализ: Основы теории. Комплексный анализ хозяйственной деятельности организации. Учебник.- М.: Высшее образование, 2006. 452 ст.
- 31.Гадаев Э. и другие. Годовой отчет-2009. NORMA, 2010.- 368 б.
- 32.Gadoev E. va boshq. Yillik hisobot-2008. Toshkent: NORMA, 2009.- 597b.
- 33.Джамбакиева Г. Финансовый учет. Учебное пособие. Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2012 й. – 348 б.

34. Gadoev E. va boshqalar. Buxgalter uchun amaliy qoʻllanma: ikki jildlik. Toshkent NORMA. 2010.
35. Донцова Л.В. Анализ финансовой отчетности: Учебник.-М.: Дело и Сервиз, 2008.
36. Doʻsmuratov R.D. Audit asoslari.-T.: Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.-254 b.
37. Завалишина И.А. Бухучет по новому. –Т.: Мир экономики и права, 2004. 432 стр.
38. Ibragimov A., Ochilov I., Qoʻziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2008.-444 b
39. Karimov A., Islomov F., va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2004.-592b.
40. Mamatov Z.T., Norbekov D.E. Audit: Oʻquv qoʻllanma.- T.: TMI, 2007.-137b.
41. Ortikov X.A. va boshqalar. Oʻzbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar toʻplami. Toshkent, «NORMA», 2010. — 528-6
42. Ortikov X.A. va boshq. Buxgalteriya hisobi boʻyicha uslubiy qoʻllanmalar toʻplami. Toshkent, «NORMA», 2010. — 368-6
43. Ochilov I., Qurbonboev J. Moliyaviy hisob. T.: TMI, 2004.-256 b.
44. Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi. Oʻquv qoʻllanma.-T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. 252 b.
45. Sotvoldiev A.S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. - T.: Milliy Assotsiatsiyasi, 2004, 429 b.
46. Сотволдиев А.С. Финансовый и управленческий учет. Учебник. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2012 й. – 280 б.
47. Sotivoldiev A.S. Buxgalterning izohli lugʻati. Toshkent: NORMA, 2010 yil. 280 b.
48. Tulaxodjaeva M.M. va boshqalar. Audit. I- II jild. Toshkent: NORMA, 2008 yil

49.O‘razov B., Vohidov V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. T.: «ADIB NASHRIYOTI», 2011 y. – 494 b.

50.G‘ulomova F.G‘. Buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganish uchun qo‘llanma. Toshkent: NORMA, 2010 yil. 496 b.

VI. Internet saytlari.

51.<http://www.gov.uz>. (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali)

52.<http://www.mf.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

53.<http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta’lim tarmog‘i)

54.<http://www.lex.uz> (O‘z.R. qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)

55.<http://www.bem.uz> (BEM trening tsentr)

56.<http://www.tfi.uz> (Toshkent moliya instituti sayti)